



**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI
QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

OLIY TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH: XALQARO STANDARTLAR TAHLILI VA MILLIY TAJRIBA

O'quv-uslubiy majmua



2025



+99871-202-01-20

<https://bimm.uz>

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**“OLIY TA’LIM SIFATINI TA’MINLASH: XALQARO STANDARTLAR
TAHLILI VA MILLIY TAJRIBA”
MODULI BO‘YICHA**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

(Oliy ta’lim muassasalari O‘quv ishlari bo‘yicha prorektorlari, o‘quv-uslubiy boshqarma boshliqlari, dekan va o‘quv ishlari bo‘yicha dekan muovinlari, kafedra mudirlari va o‘quv ishlari bo‘yicha mas’ul rahbarlar uchun)

Toshkent – 2025

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan o'quv dasturi va
o'quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **A.Djurayev**- pedagogika fanlari doktori, dotsent
 A.Xoliqov – kimyo fanlari doktori, professor

Taqrizchi: **L.Zaripov** – pedagogika fanlari doktori, professor

*O'quv-uslubiy majmua Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish
instituti Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2024-yil 27-dekabrdagi 3-son bayoninig 4.2-qarori)*

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O‘QITISH METODLARI	11
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	18
IV.	SEMINAR-TRENING MASHG‘ULOT MATERIALLARI	31
V.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	54



I. ISHCHI DASTUR

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-son, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-son, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son, 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-son, 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son hamda “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari rahbar kadrlarining xalqaro ta’lim standartlari va oliy ta’lim tizimidagi global tendensiyalar, ta’lim muassasalarini xalqaro standartlarga moslashtirish strategiyalari, oliy ta’lim sifatini ta’minlashda xalqaro standartlarni milliy tajribalar bilan qiyoslash orqali tahlil qilish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim tizimini tashkil qilish, yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida ta’lim sifatini yaxshilash, ta’lim sifatini ta’minlashda xalqaro standartlarni amaliyotga tadbiq etish, rivojlangan davlatlarning oliy ta’limdagi xalqaro standartlarining mazmun-mohiyatini o‘rganish, undagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil etish va baholash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: tinglovchilarni oliy ta’lim sifatini ta’minlashda xalqaro standartlarning o‘rni haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan milliy hamda ilg‘or xorijiy tajribalar bilan yaqindan tanishtirish va

sohadagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarini yangilash hisoblanadi.

Modulning vazifalari:

- oliy ta‘lim sifatini ta‘minlashda xalqaro standartlarning mazmun-mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘zlashtirish;
- oliy ta‘lim sifatini ta‘minlashda xalqaro standartlarning ahamiyatini yoritib berish;
- ta‘lim muassasalarini xalqaro standartlarga moslashtirish strategiyalari to‘g‘risida chuqur bilim olishni ta‘minlash;
- oliy ta‘lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tizimlar borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish;
- oliy ta‘limda sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish, milliy ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘llaridan foydalanish;
- yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida ta‘lim sifatini yaxshilashni o‘rgatish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Oliy ta‘lim sifatini ta‘minlash: xalqaro standartlar tahlili va milliy tajriba” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- xalqaro ta‘lim tizimining asosiy standartlari, ularning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillarini;
- ta‘lim sifatini ta‘minlashda rivojlangan mamlakatlarning ta‘lim sifatini boshqarishdagi tajribalarini;
- ta‘lim siyosati va strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro yondashuvlarni;
- milliy ta‘lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish yo‘llarini;
- xalqaro standartlarni amaliyotga tadbiq etish istiqbollari;
- yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida ta‘lim sifatini yaxshilashni;
- ta‘lim muassasalarini xalqaro standartlarga moslashtirish strategiyalarini;
- global iqtisodiy va texnologik o‘zgarishlar sharoitida oliy ta‘lim sifatini oshirishga asoslangan siyosatni **bilishi** lozim.

Tinglovchi:

- xalqaro ta‘lim tizimining asosiy standartlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- xalqaro ta‘lim standartlari va oliy ta‘lim tizimidagi global tendensiyalarni tahlil etish va baholash;
- ta‘lim sifatini ta‘minlashda rivojlangan mamlakatlarning ta‘lim sifatini boshqarishdagi tajribalarini o‘zlashtirish;

- ta'lim siyosati va strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro yondashuvlarni o'rganish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

- O'zbekiston oliy ta'limi uchun dolzarb yo'nalishlarni tahlil qilish va ularning zarurligini muhokama etish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- xalqaro ta'lim tizimining asosiy standartlari: UNESCO, OECD, Bolonya jarayoni va ECTS krediti tizimini samarali joriy etish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan turli metod va usullarini qo'llash;

- oliy ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tizimlar: QS World University Rankings, THE Rankings talablari bilan tanishish;

- ta'lim sifatini ta'minlashda ENQA (European Association for Quality Assurance in Higher Education) tamoyillari AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlarining ta'lim sifatini boshqarishdagi tajribalarini amaliyotga tadbiq etish;

- ta'lim muassasalarini xalqaro standartlarga moslashtirishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- xalqaro ta'lim standartlarni respublikamiz oliy ta'lim tizimiga joriy etish yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Oliy ta'lim sifatini ta'minlash: xalqaro standartlar tahlili va milliy tajriba” moduli ma'ruza, seminar-trening mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

O'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Ma'ruza va seminar-trening mashg'ulotlar munozara va debat, ilmiy baxs va muhokama shaklida, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llagan holda, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar asosida tashkil etiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Oliy ta'lim sifatini ta'minlash: xalqaro standartlar tahlili va milliy tajriba” moduli o'quv rejadagi “Oliy ta'lim sifatini strategik boshqarish va rejalashtirish” va “Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini akkreditatsiyadan o'tkazish tartibi va baholash” modullari bilan o'zaro bog'liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog'langan holda oliy ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tizimlar tajribalaridan foydalanish hamda ta'lim muassasalarini xalqaro standartlarga

moslashtirish strategiyalarini o'rganish, shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar xalqaro ta'lim standartlari va oliy ta'lim tizimidagi global tendensiyalar, xalqaro standartlarning oliy ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni va ahamiyati, mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari, yo'nalish va maqsadlari, shuningdek, ichki va tashqi sifatni ta'minlash tizimlari, oliy ta'limda sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish, milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'llariga oid kasbiy bilim va malakalarga ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Seminar-trening
1.	Xalqaro ta'lim standartlari va oliy ta'lim tizimidagi global tendensiyalar	2	2	
2.	Ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va oliy ta'limni moslashtirish	2	2	
3.	Xalqaro ta'lim standartlari va oliy ta'lim tizimidagi global tendensiyalar	2		2
4.	O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya imkoniyatlari	2		2
5.	O'zbekiston oliy ta'limi uchun dolzarb yo'nalishlar	2		2
6.	O'zbekistonning oliy ta'lim sifatini ta'minlash tizimi	2		2
7.	Ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va oliy ta'limni moslashtirish	2		2
Jami:		14	4	10

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Xalqaro ta'lim standartlari va oliy ta'lim tizimidagi global tendensiyalar. (2 soat).

Xalqaro ta'lim tizimining asosiy standartlari: UNESCO, OECD, Bologna jarayoni va ECTS krediti tizimi. Ta'lim sifatini ta'minlashda ENQA (European Association for Quality Assurance in Higher Education) tamoyillari AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlarining ta'lim sifatini boshqarishdagi tajribalari.

2-mavzu. Ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va oliy ta'limni moslashtirish. (2 soat).

Ish beruvchilar va mehnat bozori tahlili. Talabalar va pedagoglarning ehtiyojlarini o'rganish usullari. Global iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar fonida oliy ta'limga ehtiyojlar. Ta'lim dasturlarini moslashtirish va yangi yo'nalishlarni joriy etish.

SEMINAR-TRENING MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Xalqaro ta'lim standartlari va oliy ta'lim tizimidagi global tendensiyalar. (2 soat).

Xalqaro ta'lim tizimining asosiy standartlari: UNESCO, OECD, Bologna jarayoni va ECTS krediti tizimi. Ta'lim sifatini ta'minlashda ENQA (European Association for Quality Assurance in Higher Education) tamoyillari AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlarining ta'lim sifatini boshqarishdagi tajribalari.

2-mavzu: O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya imkoniyatlari. (2 soat).

Oliy ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tizimlar: QS World University Rankings, THE Rankings. Dunyo oliy ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatli tajribalar: AQSh, Yevropa, Osiyo davlatlari namunasi.

3-mavzu: O'zbekiston oliy ta'limi uchun dolzarb yo'nalishlar. (2 soat).

Ta'lim muassasalarini xalqaro standartlarga moslashtirish strategiyalari. Ta'lim siyosati va strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro yondashuvlar. Xalqaro va milliy darajada ta'lim sifatini monitoring qilish.

4-mavzu: O'zbekistonning oliy ta'lim sifatini ta'minlash tizimi. (2 soat).

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlashning muvaffaqiyatli tajribalari. Ichki va tashqi sifatni ta'minlash tizimlari. Oliy ta'limda sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish. Milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'llari. Yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida ta'lim sifatini yaxshilash.

5-mavzu: Ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va oliy ta'limni moslashtirish. (2 soat).

Ish beruvchilar va mehnat bozori tahlili. Talabalar va pedagoglarning ehtiyojlarini o'rganish usullari. Global iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar fonida oliy ta'limga ehtiyojlar. Ta'lim dasturlarini moslashtirish va yangi yo'nalishlarni joriy etish.

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modulning ma'ruza va seminar-trening mashg'ulotlarini o'qitishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ma'ruza mashg'ulotlari (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);

- seminar-trening mashg'ulotlari davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“KWLH” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?.

“KWLH” metodi	
- Nimalarni bilaman: -	Nimalarni bilishni xohlayman, nimalarni bilishim kerak:
3. Qanday qilib bilib va topib olaman: -	Nimalarni bilib oldim:

“W1H” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

What?	Nima? (ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi)	
Where?	Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mumkin)?	
What kind?	Qanday? (parametrlari, turlari mavjud)	
When?	Qachon? (ishlatiladi)	
Why?	Nima uchun? (ishlatiladi)	
How?	Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to’ldiriladi, tahrirlash mumkin)	

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	• кучли томонлари
W – (weakness)	• заиф, кучсиз томонлари
O – (opportunity)	• имкониятлари
T – (threat)	• хавфлар



Keys-stadi” metodi

«**Keys-stadi**» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil

Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'rganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash
2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish	✓ individual va guruhda ishlash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	✓ yakka va guruhda ishlash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta'lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o'zlashtirish ko'rsatkichi va amaliy ko'nikmalarini tekshirishga yo'naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta'lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo'nalishlar (test, amaliy ko'nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo'yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardan ma’ruza mashg’ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o’rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg’ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o’zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o’z-o’zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o’qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o’quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo’shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.



Test

Muammoli vaziyat

Tushuncha tahlili (simptom)

Amaliy vazifa

“SCAMPER” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod muammolarni bartaraf etish bo’yicha yangi innovatsion g’oyalarni ishlab chiqishga yo’naltirilgan. SCAMPER “tez yugurish” degan ma’noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.

SCAMPER

SCAMPER **HAZOPAT SAVOLLARI**



S Substitute? - Заменить? Алмаштириш

C Combine? - Комбинировать? Бирлаштириш

A Adapt? - Адаптировать? Мослаштириш

M Modify? = Magnify? - Модифицировать? Модификация

P Put to other uses? - Бошқа соҳаларда қўллаш

E Eliminate or minify? - қисқартириш

R Revers? = Rearrange? - тартибини ўзгартириш



32

Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish

SCAMPER savollari	SCAMPER savollari (yangi g'oyani ishlab chiqish)	Ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish
S	Nima bilan almashtirish mumkin?	
C	Nima bilan birlashtirish mumkin?	
A	Nimaga moslashtirish kerak?	
M	Qanday yaxshilash mumkin?	
P	Nimalarni o'zgartirish mumkin? (shakl, tur, belgi, rang va boshqalar)	
E	Yana qanday holda qo'llash mumkin	
R	Nimani qayta tiklash mumkin?	



III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

III. NAZARIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-MAVZU. XALQARO TA'LIM STANDARTLARI VA OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI GLOBAL TENDENSIYALAR. (2 soat).

Режа:

1.1. Xalqaro ta'lim tizimining asosiy standartlari: UNESCO, OECD, Bologna jarayoni va ECTS krediti tizimi.

1.2. Ta'lim sifatini ta'minlashda ENQA (European Association for Quality Assurance in Higher Education) tamoyillari, AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlarining ta'lim sifatini boshqarishdagi tajribalari.

Tayanch iboralar: krediti tizimi, global tendensiyalar, UNESCO, OECD, Bologna jarayoni va ECTS krediti tizimi, ENQA tamoyillari.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

1999 yilda 29 ta davlat tomonidan Bolonyada yagona ta'lim muhitini yaratish jarayonida ishtirok etish haqidagi Deklaratsiya imzolandi. Uning maqsadi taqqoslanadigan darajalar tizimini qabul qilish, akademik va kasbiy tan olishni yengillashtirish va bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatlarini ta'minlashga qaratildi. Bolonya jarayoni barcha davlatlar uchun ochiq bo'lib, bugungi kunga kelib ishtirokchi davlatlar soni 50 ga yaqinlashib qoldi.

Boloniya jarayoni YuNESKO, Yevropa Kengashi, Yevropa Komissiyasi hamda Yevropa hududidagi milliy hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Hozirgi kunda Boloniya jarayoni 57 ta a'zodan iborat: 48 ta davlatdagi 49 ta oliy ta'lim tizimi (shu jumladan, Belgiyaning flamand va fransuz birlashmasi), Evropa komissiyasi hamda 7 ta maslahatchi-a'zo. Boloniya jarayoni bo'yicha xalqaro muvofiqlashtirish guruhi tomonidan tashkil etilgan Yevropa Komissiyasi ko'magida jarayonning turli yo'nalishlariga bag'ishlangan ko'plab konferensiya va seminarlar tashkil etilgan

Boloniya jarayoni MDHda

Bugungi kunda MDH tarkibiga kiruvchi 11 davlatdan 7 tasi: Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Armaniston, Moldova, Belarussiya va Qozog'iston Boloniya deklaratsiyasini qabul qilgan rasmiy a'zolardan hisoblanadi. Boshqa davlatlarda Boloniya jarayoni tamoyillarini faol muhokamasi amalga oshirilmoqda va uning o'ziga xosliklarini hamda mazkur tamoyillarni turli davlatlarda qo'llanishi diqqat bilan o'rganilmoqda.

O'z mohiyatiga ko'ra Boloniya jarayonining barcha qoidalari ixtiyoriy tavsifga ega, biroq, ba'zi tamoyillari majburiy hisoblanadi. Agar Boloniya jarayonining majburiy bo'lgan qoidalariga murojaat qiladigan bo'lsak, MDH davlatlarida ulardan ba'zi birlari amalga oshirilmay, faqat qog'ozda qolganini kuzatishimiz mumkin. Shunga qaramay, ushbu mamlakatlar umumjahon ta'limiy hududga a'zo bo'lish uchun qadam tashlash bilan bir qatorda, mazkur yo'nalishda bir qator islohotlarni amalga oshirib, sezilarli yutuqlarga erishdi.

O'zbekiston Respublikasi milliy ta'lim tizimi va Boloniya deklaratsiyasi tamoyillarining qiyosiy tahlili

Yevropa komissiyasi tomonidan 2012 yilda o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra O'zbekiston Respublikasida Boloniya deklaratsiyasiga moslik darajasi quyidagicha:

- 3 siklli Boloniya tizimi;
- Kreditlarni o'tkazishning yevropacha tizimi (ECTS);

- Boloniya diplom ilovasi;
- Malakalarning milliy ramkasi(NFQ);
- sifat ta'minoti mexanizmlari;
- Chet elda olingan malakalarni tan olish.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini mazkur jarayon bilan qiyoslanganda shuni yodda tutish kerakki, Boloniya jarayoni tamoyillari va yo'nalishlarini qabul qilish ixtiyoriy hisoblanadi.

Birinchi bosqichda Boloniya jarayoni o'nta asosiy yo'nalishlardan iborat edi. Keyinchalik mazkur yo'nalishlar rivojlantirib borildi. Bugungi kunda Boloniya jarayonining asosiy vositalari quyidagilardan iborat:

- Darajalarning konvergent tizimi: uzluksiz ta'lim uchun Yevropa Ittifoqining malakalar ramkasidagi oliy ta'lim malakasiga mos keluvchi EHEA malakalar ramkasiga kiritilgan bakalavriat, magistratura va doktorantura kabi uch ta'limiy davr. Yerevanda o'tkazilgan oxirgi konferensiyada ta'lim vazirlari qisqa muddatli darajalarni ham tan olishga kelishib olishgan.

- Qo'shma kreditlar tizimi – kreditlar o'tkazishning yevropacha tizimi (ECTS) yoki moslashtirish tizimi.

- Talaba va xodimlarning mobilligi.

- Oliy ta'lim tizimi va oliy ta'lim muassasalarini internatsionallashtirish, EHEA ning xalqaro mavqeini mustahkamlash.

- Sifat ta'minotining yevropacha o'lchovi – Yevropa hududida oliy ta'lim sifati ta'minoti asosiy tamoyil va standartlar asosida amalga oshirish.

- Uzluksiz ta'lim va imkoniyat hamda ishtirokni kengayishini ta'minlovchi ijtimoiy omil.

- Tan olish to'g'risidagi Lissabon Konvensiyasiga mutanosib tarzda kredit tizimiga asosan ta'lim davri va darajalarni tan olish.

Boloniya uch davriy tizimi

Boloniya jarayonining asosiy yo‘nalishlaridan biri oliy ta’limning ketma-ket keladigan uch davri, ya’ni, birinchi, ikkinchi va uchinchi davrdagi uch daraja – bakalavr, magistr va doktor darajasiga ega bo‘lish imkonini beradi. Bakalavriat va magistratura dasturi uchun umumiy model ishlab chiqilgan, lekin uchinchi sikl uchun aniq qoida shakllanmagan hamda ularni aniqlash huquqi o‘z faoliyatini boshqarish va tartibga solishga intilishi bo‘lmagan universitetlar tashqarisida bo‘ladi.

O‘zbekiston ham Boloniya jarayoni tamoyillariga mos keluvchi uch daraja modelini qabul qilgan.

- Kreditlar o‘tkazishning yevropacha tizimi (ECTS)

ECTS talabalarga oliy ta’im muassasasida muvaffaqiyatli o‘zlashtirilgan kurslar uchun kreditlar yig‘ish imkoniyatini beradi. Tizim natijalar va o‘quv jarayoni shaffofligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, ta’lim davrini tan olishga hissa qo‘shadi. Amaliyotda bu tizim dastur/kurslar faoliyati bilan bog‘liq holatlarni qiyoslashni yengillashtiradi va tushunishni ta’minlaydi. Shuningdek, mazkur tizim talabalar mobilligi va chet elda ta’lim olishini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Amaliyotda 60 kredit bir rasmiy o‘quv yili uchun yuklama hisoblanadi hamda u ta’lim natijalariga mos keladi. O‘zbekistonda, avvalgidek, professor-o‘qituvchilarning mehnati sarfi soatlar shaklidagi o‘quv yuklamasi orqali belgilanadi.

- Boloniya diplomiga ilova

Boloniya diplomiga ilova xalqaro shaffoflik, akademik va kasbiy malakalarni tan olishni kuchaytirish maqsadida oliy ta’lim to‘g‘risidagi diplomga ilova qilinadigan hujjat hisoblanadi. U quyidagi sakkiz qismdan iborat bo‘ladi: ta’lim xarakteri, darajasi, yo‘nalishi, mazmuni hamda muvaffaqiyatli yakuni. Ilova tarkibiga, shuningdek, oliy ta’limning milliy tizimi tavsifi ham kiradi. Boshqacha qilib aytganda, u diplom mazmunini yoritadi va uning egasiga o‘zining malakalarini namoyish qilishga yordam beradi. O‘zbekistonda ham diplom ilovasi mavjud.

Mazkur ilova o'quv predmatlari nomi hamda olingan baholarni o'zida mujassamlashtirgan.

- Malakalarning milliy tizimi (MMT)

Malakalar milliy tizimi ta'limning erishiladigan aniq darajalari uchun ishlab chiqilgan ko'rsatkichga mos bo'lgan malakalarni tasniflash uchun vosita hisoblanadi. MMT mehnat bozori hamda fuqaroviy jamiyatning manfaatidan kelib chiqqan hol da yanada yuqori malakalar va darajalarga o'tishi uchun yo'nalishlarning shaffofligi, ochiqligi, tavsifini ta'minlovchi vosita sanaladi. Mazkur tizim u yoki bu mamlakatda egallanishi mumkin bo'lgan turli malakalar hamda ta'lim sohasidagi boshqa yutuqlarni tavsiflaydi va bir-biriga bog'laydi. O'zbekiston hanuzgacha MMT muhokamasining boshlang'ich bosqichida va, umuman olganda, uning rivojiga bo'lgan o'z qiziqishini bildirmoqda.

- Milliy sifatni ta'minlovchi tizim (NQA)

Sifatni ta'minlash - baholash, monitoring, ta'lim muassasalari va oliy ta'lim dasturlarining sifat tizimini ta'minlash, qo'llab-quvvatlash va takomillashtirish jarayoniga taalluqlidir. Milliy darajada, tashqi baholashning mazkur usuli alohida vakolatlarga ega bo'lgan mustaqil va avtonom idora tomonidan amalga oshirilishi kerak. O'zbekistonda oliy ta'limda sifat ta'minoti, OTMlarning akkreditatsiya va attestatsiya masalalari bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi Davlat test markazi shug'ullanadi. Mazkur tashkilot sifatni baholash va nazorat qilish jarayonida xalqaro agentliklar xizmatidan foydalanmaydi.

- Chet el malakalarini tan olish

Malakalarni tan olish Boloniya jarayonining muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi va xalqaro mobillikni rivojlantiruvchi hamda bitiruvchilarning ishga joylashish imkoniyatini yaxshilovchi omil sifatida baholanadi.

Bu sohadagi vositalardan biri malakalarni tan olish bo'yicha Lissabon konvensiyasi hisoblanadi. U belgilangan standartlar asosida bir mamlakatda

egallangan malakalarni boshqa mamlakatlarda tan olish to'g'risidagi xalqaro konvensiya sanaladi. Konvensiya Yevropa Kengashi bilan YuNESKO tomonidan hamkorlikda ishlab chiqilgan bo'lib, Yevropa va undan tashqaridagi 50dan ortiq davlatlar tomonidan imzolangan. Mazkur hujjat, birinchi navbatda, Yevropa Kengashi, shuningdek, Yevropa hamda Shimoliy Amerikada foydalanish uchun mo'ljallangan. O'zbekistonda tan olish masalalari bilan DTM shug'ullanadi va hozirda chetda olingan ta'lim to'liq tan olinadi. Shunga qaramay, qisqa muddatli mobillik masalalari universitet darajasida hanuz hal qilinmagan.

- Qo'shma dastur va darajalar

Global miqyosda qo'shma dastur va darajalar baynalminallashuvning muhim omillaridan bo'lib, universitetlar hamkorligidagi asosiy vositalardan biri sifatida qayd etilmoqda. O'zbekistonda chet el OTMlari filiallarida tadbqiq etilayotgan bir qator xalqaro dasturlar mavjud.

Bolonya jarayoni ta'lim tizimining xronologiyasi

1988 – Magna Charta Universitatum. Bolonya shahrida 388 ta Yevropa universiteti tomonidan imzolandi. Universitetlarning akademik erkinligi va mustaqilligini e'lon qildi. Ilm-fan, tadqiqot va ta'lim erkinligi tamoyillari belgilandi. Universitetlar siyosiy va iqtisodiy bosimlardan holi bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Oliy ta'limning xalqaro hamkorligi muhimligi e'tirof etildi.

1999 – Bolonya Deklaratsiyasi. 29 ta Yevropa davlati tomonidan imzolangan asosiy hujjat. Yevropa Oliy Ta'lim Hududi (EHEA) yaratish maqsadi belgilandi. Uch bosqichli ta'lim tizimi (Bakalavr, Magistratura, Doktorantura) rasman joriy etildi. Har xil davlatlarda olingan diplomlarning o'zaro tan olinishi uchun asos yaratildi. Talabalar va o'qituvchilar xalqaro almashinuvi soddalashtirildi. Ta'lim tizimida sifatni baholash va kredit tizimi (ECTS) joriy qilindi.

2001 – Praga Kommyunikesi. Bolonya jarayonining rivojlanish yo‘nalishlari kengaytirildi. Talabalar ishtiroki va umr bo‘yi ta‘lim olish muhim deb e‘lon qilindi. Oliy ta‘limning xalqaro ochiqligi va mobilligi qo‘llab-quvvatlandi. Talabalar qarorlarga ta‘sir qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Oliy ta‘lim barcha uchun ochiq va moslashuvchan bo‘lishi kerakligi belgilandi.

2003 – Berlin Kommyunikesi. Doktorantura (PhD) Bolonya tizimining uchinchi bosqichi sifatida tasdiqlandi. Ilmiy tadqiqotlar va oliy ta‘lim integratsiyasi kuchaytirildi. Diplumlarni xalqaro tan olish bo‘yicha mexanizmlar rivojlantirildi. Doktorantura bosqichi rasmiy maqomga ega bo‘ldi. Talabalar va professorlar o‘rtasidagi xalqaro hamkorlik kengaydi.

2005 – Bergen Kommyunikesi. Oliy ta‘lim sifatini ta‘minlash bo‘yicha Yevropa standartlari qabul qilindi. Oldingi ta‘lim tajribasini tan olish tizimi joriy etildi. Yangi mamlakatlar Bolonya jarayoniga qo‘shildi. Oliy ta‘limda xalqaro sifat standartlari paydo bo‘ldi. Ta‘lim jarayonida moslashuvchan yondashuv qo‘llanildi.

2007 – London Kommyunikesi. Talabalar va o‘qituvchilar almashinuvi yanada soddalashtirildi. Qaror qabul qilish jarayonida talabalar ovozi muhim deb belgilandi. Ijtimoiy himoya va inklyuziv ta‘lim muhim deb topildi. Ta‘lim ijtimoiy tenglik va inklyuziyani qo‘llab-quvvatlashi kerakligi ta‘kidlandi. Talabalar huquqlari va manfaatlari himoya qilindi.

2009 – Leuven/Lyoven-la-Neuve Kommyunikesi. 2020 yilgacha talabalarining 20% xalqaro tajriba orttirishi belgilandi. Ishga joylashish va ta‘lim uyg‘unligi muhim deb topildi. Yevropadagi barcha talabalar uchun xalqaro almashinuv imkoniyatlari yaratildi. Ta‘lim mehnat bozoriga moslashishi kerakligi tushunildi.


2010 – Yevropa Oliy Ta‘lim Hududi (EHEA)ning yaratilishi. Budapesht-Vena konferensiyasida EHEA rasmiy ravishda ishga tushirildi. Yevropa bo‘ylab oliy ta‘lim muassasalari uchun yagona ta‘lim maydoni yaratildi. Bolonya jarayoni o‘zining asosiy maqsadiga yetdi. Oliy ta‘limning muvofiqlashtirilgan tizimi shakllandi.

2012 – Buxarest Kommyunikesi. Talaba markazli ta’lim asosiy yondashuv deb belgilandi. Moliyaviy ta’minot va ish bilan bandlik muammolari muhokama qilindi. Talabalar bilim olish jarayonining asosiy markazi sifatida e’tirof etildi.

2015 – Yerevan Kommyunikesi. Raqamli ta’lim va inklyuziya masalalari muhokama qilindi. Ijtimoiy mas’uliyat va innovatsiyalar qo‘llab-quvvatlandi. Ta’lim texnologiyalari raqamli transformatsiya bosqichiga kirdi.

2018 – Parij Kommyunikesi. Akademik erkinlik va ijodiy yondashuv muhim deb topildi. Raqamli ta’lim va zamonaviy pedagogika rivojlantirildi. Ta’limni innovatsion yondashuv bilan takomillashtirish muhim deb belgilandi.

2020 – Rim Kommyunikesi. Bolonya jarayonining 20 yilligi nishonlandi. Barqaror rivojlanish, talabalar farovonligi va raqamli ta’lim muhokama qilindi. Yangi zamon talablariga mos keluvchi ta’lim strategiyalari ishlab chiqildi.



Xorijda ECTS (European Credit Transfer System) tizimi ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir o‘quv faniga yuklama hajmidan, kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun muhimligidan kelib chiqib kredit bali belgilanadi. Talaba har bir fanni muvaffaqiyatli o‘zlashtirgan taqdirda belgilangan kreditlarni oladi va bu kreditlar yig‘indisi unga mos bo‘lgan bakalavr yoki magistrlik darajasini olishga imkon beradi.

Xo'sh, kredit-modul tizimi nimani nazarda tutadi? Bugungi kunda ta'lim dasturlarini amalga oshirish uchun dunyo tajribasida kredit tizimi deb nomlangan amaliyotdan keng foydalaniladi. Kredit tizimi o'z ichiga Kredit modul tizimi va o'quv jarayonini tashkil etish ta'lim va uning uchun sarflanadigan umumiy mehnat xarajatlari miqdorini qamrab oladi.

Jahon amaliyotida Amerika Qo'shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to'plash va o'tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o'tkazishning Osiyo- tinch okeani tizimi (UCTS) eng keng tarqalgan tizimlar hisoblanadi. "Kredit soat" tizimi dastlab AQSHda paydo bo'lgan va takomillashgan. 1969 yilda Garvard universiteti Prezidenti, Amerika ta'limining atoqli namoyandasi Charlz Eliot birinchi bo'lib "kredit-soat" tushunchasini kiritdi va 1870-1880 yillar davomida fan hajmini kredit-soatlarda o'lchashga imkon beruvchi tizimni joriy qildi. 1892 yildan "kredit-soat" tizimini joriy qilishning ikkinchi bosqichi boshlandi. Bunda AQSH milliy ta'lim qo'mitasi Bakalavr darajasini (Bachelor of Arts - BA yoki Bachelor of Science - BSc) olish 4 yil o'qishni nazarda tutadi. Bu davr ichida talaba o'rtacha har biri 3 kreditlik 40 tacha fanni o'zlashtirishi zarur bo'ladi. Birinchi va ikkinchi yil tayanch bilimlarni olish uchun ajratiladi (ta'minan, 60-68 kredit) va oraliq daraja (Associates) bilan yakunlanadi, uchinchi va to'rtinchi yillar mutaxassislik fanlarini jadal o'rganishga bag'ishlanadi va bu jarayon malakaviy imtihon bilan tugallanadi.

Oliy ta'limning ikkinchi bosqichi (Graduate Level) – bu o'rta hisobda ikki yillik o'qish natijasida magistr darajasini (Master of Arts - MA yoki Master of Science - MSc) olish uchun mo'ljallangan magistrlik dasturlaridir.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning ikkinchi bosqichi va uchinchi pog'onasi – doktorlik dasturlari bo'yicha o'qish bo'lib, u tor mutaxassislikka o'qish va mustaqil ilmiy izlanuvchilikga yo'naltirilgan.

Darajani olish uchun talaba belgilangan miqdordagi kredit-soatlarni to'plashi zarur. AQSH da qabul qilingan USCS (US Credit System) tizimida kredit-soat – bu o'qish vaqtiga asoslangan o'lchovdir. Masalan, bakalavriatda 1 kredit-soat

talabaning semestr davomida har haftadagi 1 akademik soat auditoriya ishiga teng. Bundan tashqari har bir auditoriya mashg'ulotiga 2 soat (100 minut) mustaqil ish qo'shib beriladi. Magistraturada, va ayniqsa doktoranturada bu mehnat hajmida mustaqil ishning hissasi ko'payib borishi nazarda tutiladi.

Shunday qilib, Yevropada mantiqan rad etib bo'lmaydigan, maksimal darajada yaqinlashish va milliy tizimlarning baholash shkalalarini umumevropa andozasi bo'yicha tenglashtirish uchun zarur bo'lgan ECTS tizimi paydo bo'ldi. Unga ko'ra Yevropa krediti – tyutor va talaba kontakt soatlari hajmining shartli birligi hisoblanadi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

a) kadrlar tayyorlash sifati va ko'lamini inobatga olgan holda oliy ta'lim muassasalarini quyidagi toifalarga ajratish va ularni rivojlantirish strategiyalarini belgilash:

birinchi toifa — flagman universitetlar;

ikkinchi toifa — ilm-fan va innovatsion markaz funksiyasini bajaruvchi hududiy oliy ta'lim muassasalari;

uchinchi toifa — sohalar uchun ta'lim va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha tayanch muassasalar rolini bajaruvchi tarmoq oliy ta'lim muassasalari;

b) institut maqomidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyati ko'lamini kengaytirish va institutsional salohiyatini kuchaytirish orqali ularni universitetga aylantirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish;

v) oliy ta'lim muassasalarini ularning quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqib bosqichma-bosqich yiriklashtirib borish;

g) tajriba tariqasida davlat ulushining 51 foizdan kam bo'lmagan qismini saqlab qolgan holda ayrim davlat oliy ta'lim muassasalarini (oliy harbiy ta'lim muassasalari bundan mustasno) davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, ularda korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish;

d) oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha hujjat loyihalarini ishlab chiqish va muhokama etishda Respublika oliy ta'lim kengashi nufuzi va faolligini oshirish, mas'uliyatini kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalarida jamoatchilik nazoratining zamonaviy mexanizmlarini joriy etish;

e) oliy ta'lim tizimida boshqaruv jarayonlarini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida optimallashtirish, davlat interaktiv xizmatlari ko'lamini kengaytirish;

j) oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirishda strategik rejalashtirish tamoyillarini joriy etish, bunda vasiylik kengashlari mas'uliyati va rolini oshirish;

z) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi funksiyalarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, bunda ta'lim sifatini baholashning yangi mexanizmlarini joriy etish, kadrlar buyurtmachilari va talabalar o'rtasida o'tkazilgan milliy so'rov natijalarini chuqur tadqiq qilish orqali muammolarni bartaraf etish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ta'sirchan instrumentlar yordamida nazorat qilib borish, bitiruvchilar sifati va ularning ixtisosligi bo'yicha ishga joylashish masalalariga e'tibor qaratish;

x) ta'lim sifatini nazorat qilish va oliy ta'lim muassasalari reytingini yuritishning nodavlat tizimini yaratish bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilash;

y) oliy ta'lim muassasalarida ishga qabul qilish va yuqori lavozimlarga tayinlashda oliy ta'lim tizimi rivoji uchun o'zining munosib hissasini qo'shuvchi

kadrlarni tanlash, ularning faoliyati, professional xususiyatlari, soha oldidagi alohida xizmatlarini adolatli va xolisona baholashni nazarda tutuvchi meritokratiya tamoyillarini qo'llash, rahbarlik lavozimlariga tayinlashda gender tengligi tamoyillariga qat'iy rioya qilish;

k) oliy ta'lim muassasalari rahbarlik lavozimlariga zaxira kadrlarni shakllantirish, maqsadli o'qitish va tayyorlash samaradorligini oshirish;

l) oliy ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini rotatsiya qilish mexanizmini joriy qilish.

Nazorat savollari:

1. Kredit-modul tizimini izohlang.
2. Bolonyada yagona ta'lim muhitini yaratish jarayonida ishtirok etish haqidagi Deklaratsiya qachon imzolangan?
3. ECTS krediti tizimi asoslari nimalardan iborat?
4. Ta'lim sifatini ta'minlashda ENQAninig qanday tamoyillari bor?

2-MAVZU. TA'LIM EHTIYOJLARINI ANIQLASH VA OLIY TA'LIMNI MOSLASHTIRISH. (2 soat).

Режа:

2.1. Ish beruvchilar va mehnat bozori tahlili. Talabalar va pedagoglarning ehtiyojlarini o'rganish usullari.

2.2. Global iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar fonida oliy ta'limga ehtiyojlar. Ta'lim dasturlarini moslashtirish va yangi yo'nalishlarni joriy etish.

Tayanch iboralar: mehnat bozori, globallashtirish, global iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar, inson resurslari.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim xizmatlari bozori bilan mehnat bozorining hamkorlikda milliy xo'jalik uchun zarur bo'lgan kadrlar, jumladan, oliy malakali mutaxassislarni talab darajasida tayyorlash va ularni ish joylari bilan ta'minlashga qaratilgan ta'lim xizmatlari zamonaviy modellarini ishlab chiqilishi bu ikkala bozorlar faoliyatlarini muvozanatlashning muhim dastagi hisoblanadi. Ta'lim xizmatlari va mehnat bozorlarining yagona umumlashgan mexanizm tariqasida

shakllanishi va faoliyat yuritishi o‘zaro bog‘liq bo‘lgan talab va taklifni, bozorlar infratuzilmalarini rivojlanishi, oliy ta’lim muassasalari tomonidan tayyorlanayotgan mutaxassislariga bo‘lgan talabni qondirishni raqobat asosida mehnat bozori bilan hamkorlikda amalga oshirilishi zarur. Ta’lim xizmatlari va mehnat bozorining amal qilish mexanizmi bizning fikrimizcha, ta’lim xizmatlari va mehnat bozorida talab-va taklif mexanizmidan tashkil topib, bozor sharoitida ishlashni xohlovchi ishchi kuchi bilan ish beruvchi sub’ektlari o‘rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantirishda ifodalanadi. Jahon iqtisodiy munosabatlarning globallasuvi sharoitida, mehnat bozorini amal qilishining samaradorligini oshirish bo‘yicha har bir mamlakatda tegishli muammolar yetarlicha hisoblanadi. Jumladan, bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda aholining qarishi global muammosi sharoitida mehnat bozorida yosh ishchi kuchiga bo‘lgan talab ortib borayotgan bir paytda, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat bozorida yuqori malakali ishchi kuchining yetishmasligi kabi muammolar mavjud. Ushbu holat jahon amaliyotida mehnat bozorining amal qilish samaradorligini oshirishda mehnat bozori va ta’lim tizimi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni mustahkamlash zaruriyatini vujudga keltiradi.

Oliy ta’lim muassasalarida kasbiy ta’lim bo‘yicha bakalavr va magistrantlar uchun ishlab chiqiladigan ta’lim standartlarini ishlab chiqishda ish beruvchi va oliy ta’lim muassasasining yetakchi xodimlari va professor-o‘qituvchilari o‘rtasidagi kooperatsiyalashuvni chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu taklifni amaliyotga tatbiq etish orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

- oliy ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi mehnat bozorida ishchi kuchi sifatini oshirish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik yo‘lga qo‘yiladi;
- oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan fanlar bevosita ish beruvchi talablariga asoslanishi ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirishi bilan birgalikda ishchi kuchi sifatini yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi;
- bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash ko‘rsatkichlari yaxshilanadi;
- mehnat bozorida kadrlarning salohiyati pastligi muammosini qisqa muddatlarda hal etishga erishiladi;

– oliy ta'lim muassasalari bazasida o'qitiladigan fanlar yildan yilga takomillashib boradi va h.k

Pedagoglarning roli talabaning ehtiyojlari va qiziqishlarini tushunishda va ularga mos o'quv dasturlari yaratishda juda muhimdir. Pedagog talabalar bilan samarali muloqot olib borib, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlab, ta'lim jarayonini ushbu omillarga asoslanib shakllantirishi lozim. Agar o'qituvchi talabaning ichki ehtiyojlariga mos ravishda darslarni tashkil etsa, bu talabaning o'quv faolligini oshiradi va motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilar individual yondashuvni qo'llashlari zarur. Har bir talaba o'zining ehtiyojlari va qiziqishlari bilan farqlanadi, shuning uchun o'qituvchi turli talabalarning turli ehtiyojlariga javob bera olish uchun o'z pedagogik metodikasini moslashtirishi lozim. Talabaning ta'lim faoliyatidagi ehtiyojlar va qiziqishlar ta'lim jarayonida faollikning asosiy manbalaridan hisoblanadi. Ehtiyojlar va qiziqishlar o'quv jarayonini tashkil etishda, motivatsiyani oshirishda va ta'lim sifatini yaxshilashda katta rol o'ynaydi. O'qituvchining talabalar bilan samarali muloqot olib borishi va ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olish, o'quv jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida talabalar o'z ehtiyojlari va qiziqishlariga mos ravishda faollik ko'rsatadilar, bu esa o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda ehtiyojlar va qiziqishlar talabaning ta'lim faoliyatidagi faolligining asosiy manbai hisoblanadi. Talabaning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishlari va ehtiyojlari, uning o'qishdagi muvaffaqiyatini va kelajakdagi faoliyatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Motivatsiya va faollikning manbai sifatida ehtiyojlar va qiziqishlarni tushunish, talabalar o'rtasida motivatsiyani oshirish, o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarurdir. O'qituvchilar talabalarning ehtiyojlarini va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishda samarali usullardan foydalanishlari kerak. Shu bilan birga, talabalarning o'quv jarayoniga faollik bilan yondashishini ta'minlash, ularning o'z ehtiyojlari va qiziqishlarini anglashlariga yordam berish, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon iqtisodiyotida XX-XXI asrlarda globallashuv tushunchasi tobora keng qo'llanilmoqda. Globallashuv muammolari tarixchilar, iqtisodchilar, texnologlar, faylasuflar va ko'plab mamlakatlarning siyosatchilari tomonidan muhokama qilinmoqda. Ayni paytda globallashuv tarafdorlari bilan unga qarshi bo'lgan qarashlarning vujudga kelishi, asosan, ushbu tushunchaning turlicha talqin qilinishi bilan bog'liq bo'lmoqda. Globallashuv jarayoni tarafdorlarining fikricha, globallashuv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, aholi farovonligini oshiradi, yangi ish o'rinlari yaratilishiga imkon beradi.

Oliy ta'lim tizimida boshqaruv strategiyasini qo'llash masalalari bo'yicha quyidagilarga e'tibor berishi lozim.

a) ta'lim sohasidagi yangiliklar - ta'limning yangi standartlari va mutaxassislar modellarini ishlab chiqish, yangi o'quv yurtlarini tashkil etish va ishlab turgan o'quv yurtlarini yangilash kiradi. Yangiliklarning bu soxasi bilan innovatsiya ta'lim menejmenti shug'ullanadi.

b) kadrlarni izlash va tanlash - ya'ni yangi va samarali kadrlar potensialini yaratish. Mehnat bozorida kadrlarni izlashning innovatsiya-kadrlar marketingining yangi usullariiii, yangi extiyojlar va talablarni, takliflar to'g'risidagi ma'lumotlar bankini shakllantirish, ishchi o'rinlarini reklama qilish, mehnat birjalari, firmalar, kadrlarni tanlash bo'yicha, kadrlarga baxo berish va ularni, qabul qilishning yangi usullari kiradi. Bu yangiliklar bilan innovatsiya kadrlar marketingi shug'ullanadi.

v) mehnat sohasida kadrlarga oid yangiliklar. Yangi texnik va mehnat turlarini o'zlashtirish, kadrlarni attestatsiya qilish davrida kadrlar bilan ishlashning yangi usullari qo'llash, qaror topgan kadrlar tuzilmasidan mehnat funksiyalarini va vakolatlarini yangicha taqsimlash, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog'liq yangiliklar. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun xamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish va bosh.

Yuqori malakali o'qituvchi mutaxassis kadrlar tayyorlash va bu sohani ular bilan to'ldirib borishni ta'minlash;

Strategik maqsad-O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivoj-lantirishning muxim tamoyillaridan biri bo'lgan iqtisodiyotni bosqichma-bosqich rivojlantirish asosimda xamda kadrlar tayyorlashning milliy dasturidan kelib chiqib mehnat bozori va ta'limiy kasbiy xizmatlar bozorining innovatsion potensialini, davlat mintaqa,

korxona va tashkilot doiralarida kadrlarni innovatsion boshqarishning samarali ko'p tarmoqli tizmini yaratishdir. Bunda ko'zda tutilgan maqsad - sifat jihatidan yangi innovatsion faol kadrlar potensialini shakllantirishda xamda ishlab chiqarigada samarali ishlashni ta'minlashdir.

Taktik maqsad- mamlakatning o'tish davri bilan bog'liq bo'lib, u mamlakat, mintaq va tashkilotning kadrlar potensialini innovatsion faol qismini tegishli sharoitda innovatsion kadrlarga oid tadbirlarni shu jumladan kadrlarni kasb malaka tuzilmasini qayta qurish, shuningdek foyda bermaydigan kadrlarni boshqa ishlarga o'tkazish, yangi kasblarga o'qitish va boshqa yo'llari bilan saqlab qolishdir.

Strategik boshqaruvga oid yangiliklarni ro'yobga chiqarishdagi vazifalar quyidagi maqsadlarga bog'liq:

1. Inson resurslarini rivojlantirish sohasida ilmiy-amaliy, analitik ishlarni tashkil etish va o'tkazish, ilmiy tadqiqotlari bilan birgalikda tashkilotning kadrlarga oid yangi muammolarini topish va hal qilish.

2. Kadrlarga oid yangiliklarning samaradorligiga baho berish:

3. Innovatsion kadrlar siyosati istiqbollari, dasturlari va loyihalarini ishlab chiqish;

4. Kadrlarga oid yangiliklarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash:

5. Kadrlarga oid yangiliklar tashkil etish va ularni ro'yobga chiqarishni nazorat qilish;

6. Kadrlarga oid yangiliklarni asoslash va boshqalar:

7. Yangi ishlab chiqarishlar kadrlar, yangi noyob kasblar, kadrlarni eng yaxshi va novator kadrlarni izlash va tanlash:

8. Innovatsion tuzilmalarini, personalning innovatsion sifatlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularga baho berish:

9. Ish o'rinlari, mehnat va personalni tashkil etish rivojlantirishi munosabatlari bilan lavozimli sxemalarini ishlab chiqish, lavozim yo'riqnamlarini takomillashtirish:

10. Xodimlarning xizmat va kasb mansablari pog'onalari bo'yicha ko'tarilishi va almashtirilishi, rahbar personalning kadrlar rezervini shakllantirish va ular bilan ishlashni tashkil etish:

11. Eng yaxshi va novator kadrlar bilan ishlash:

12. Yangiliklarni joriy etishda personalni asoslash:

13. Kadrlarning o'qitishga xizmat ko'rsatish ishlarini tashkil etish sohasidagi yangiliklarni ishlab chiqish:

14. Mehnat xayoti standartlarini va uning sifatini oshirishni ta'minlash va boshqalar.

Birinchi va asosiy yunalishni umumin funksional yoki funksional predmetni

tuzilma tarzida tasavvur qilish mumkin, chuiki bu o'rinda predmet va ob'ekt kadrlarga oid yangiliklarni o'zi xisoblanadi. Ular tahlil qilish, baho berish, bashorat qilish, resurslar bilan ta'minlash va xokazolarni talab qiladi.

Zamonaviy muassasalar ko'pchiligi bugungi kunda funksional ixtisoslashuvga asoslangan va vertikal bo'ysunish tizimiga markazlashgan an'anaviy pog'onali tuzilmasini qayta ko'rib chiqmoqda. Bunday tuzilma quyidagi hollarda qo'llanishi mumkin:

1) barcha faoliyat turlarini oson va tezlik bilan o'rgatish hamda ommaviy tarzda yo'lga qo'yish mumkin bo'lgan sodda, takrorlanuvchi operatsiyalarga taqsimlash mumkin;

2) Menejerlarning funksional ixtisoslashuvi va ularning o'z sohalarida mahoratlarini oshirishi katta foyda keltirishi mumkin;

3) iste'molchilar ehtiyojlari standartli bo'lib, bu usullarni osonlik bilan topish va ularni qondirish yo'llarini topish imkonini beradi. Bunday sharoitlarda xodimlarni "yuqoridan" buyruq kutishga majbur qiluvchi ko'p darajali pog'onali boshqaruv tuzilmalari va funksional byurokratiya bulishi xam mumkin.

Strategiyadagi o'zgarishlar odatda ichki jarayonlarni boshqarish usul va uslublarida ba'zi bir o'zgarishlar kiritilishiga olib keladi.

Quyida ko'rib chiqilgan siyosat va jarayonlar strategiyani bir necha xil usul bilan amalga oshirishga imkon beradi:

1. Yangi yoki yaqinda tekshirilgan jarayonlar yuqoridan pastga xodimlarni nazorat qiluvchi bo'linma Menejerlariga, barcha xodimlarga mazkur sharoitlarda ma'lum bir xatti-harakatlarni qay tarzda amalga oshirish bo'yicha buyruq va ko'rsatmalarni yetkazib berilishini ta'minlaydi.

2. Olib borilayotgan siyosat va jarayonlar xatti-harakatlarni birlashtirish hamda butun tashkilot bo'yicha amalga oshirish, mustaqil harakatlarni cheklab qo'yish, individual va guruh harakatlarini bir yo'nalishga yo'naltirishga ko'maklashadi.

3. Siyosat va standartlashtirilgan jarayonlar ayrim strategik ahamiyatli harakatlarni geografik jihatdan tarqoq struktura bo'linmalarida bajarish lozimligiga ta'sir ko'rsatishga ko'maklashadi.

4. Eski siyosat va jarayonlarni yo'qotish va ularning o'rniga yangilarini o'rnatish kompaniya ishiga, uning ichki ishlab chiqarish muhitiga ta'sir ko'rsatishi sababli strategiyani amalga oshiruvchi shaxslar siyosatni o'zgartirish jarayonidan korporativ madaniyatni yangi strategiyaga mos keladigan tarzda o'zgartirishga ta'sir ko'rsatish vositasi sifatida foydalanishi mumkin.

Demak, strategiyani tadbiq etilishi nuqtai-nazaridan menejerlar siyosatni va ko'nikmalarni yaratishga ijodiy yondoshishlari maqsadga muvofiq.

Qadriyatlar zanjirini yaratishda samarali va mahsuldor ko'rsatkichlarga erishish uchun har bir tashkilot va bo'lim maxsus vazifalarni tarmoq yoki jahon standartlari

darajasida bajarish jarayonini kuzatish maqsadida asos yaratishlari lozim. Ishni bajarishning eng yaxshi usullarini izlab topish va qo'llash (yeng yaxshi amaliyot) uchun javobgarlikning yuqoriligi strategiyani samarali amalga oshirishning uzviy bir qismi bo'lib, bu ayniqsa strategik ahamiyatli va yirik pulli operatsiyalarga taalluqli. Bunda ishni eng sifatli bajarish yoki xarajatlarni kamaytirish ishni takomillashtirishga maqsadli yo'nalgan impulsga aylantirilishi mumkin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach milliy tarbiya va ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish uchun katta zamin yaratildi. Zotan, mustaqillik fikr-mulohazalarda ozod, o'z haq-huquqini yaxshi taniydigan, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan barkamol insonni tarbiyalashni talab etadi.

Modernizatsiyalash sharoitida OTM pedagoglaridan innovatsion kompetentligini – o'z-o'zini rivojlantirishni, kasbiy va hayotiy individual traektoriyasi, samarali kommunikatsiya, mustaqil va qarorlar qabul qilishda mas'ullikni talab qiladi.

Professor-o'qituvchilarni kompetentligi shakllanishida zamonaviy innovatsion va pedagogik texnologiyalarning o'rni katta. Bu birinchi navbatda, ekspertizadan o'tkazilmagan informatsiyalar oqimining hozirgi jamiyatga oqib kelishi va bunda ilmlar massividan ta'limda talaba va pedagoglar uchun tanlash lozim bo'ladi.

Professor-o'qituvchilar faoliyatining sifatini baholash tizimi – bu bir qancha komanentlarni tartibga solingan, bir butun majmuasi bo'lib, ularning o'zaro ta'siri va integratsiyasi bevosita, maqsadli ravishda o'qituvchilar faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini samarasini oshirishga qaratilgan. Pedagoglar salohiyati xar bir OTM ning sifatini belgilovchi muhim omildir. Pedagog – fantranslyatori, uzatuvchisi sifatida bir tomondan o'z faoliyatini olib borsa, ikkinchi tomondan u shaxsiy, ma'naviy, ahloqiy jihatdan tartiblovchi sifatida namayon bo'ladi. Har bir OTM o'z bitiruvchilarini raqobatbardosh bo'lishiga ko'p jihatdan turli omillar ta'sir etishini yaxshi anglaydi.

OTM professor-o'qituvchilar tarkibi salohiyatini ilmiy salohiyatni aniqlash, istiqboldagi kadrlar tayyorlash borasidagi rejalarni ko'rib chiqishi, pedagogikaning o'z-o'zini namayon qilish, pedagogik mahoratning tashkiliy madaniyati kabi ko'rsatkichlari mezonni asosida baholash kerak. Bu ko'rsatkichlarning innavatsion nuqtai nazardan yanada kengaytirish, ta'lim jarayonining turli yo'nalishlari uchun o'ziga xos mezonlarni jahon oliy ta'lim tizimlaridan olgan holda innovatsiyalash dolzarb vazifalardandir. Professor – o'qituvchilar faoliyatining faolligi najasini baholashni quyidagi bosqichlarda olib borish kerak: Shu boisdan ham, natijaviylikka erishish uchun ta'lim sifatini oshirish tavsifiga ega bo'lgan aniq yechimlar zarur.

Bunday faoliyat sohalariga ta'lim tizimini modernizatsiyalash orqali OTMlari ichki resurslaridan foydalanishni optimallashtirishni, yangi innovatsion va pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etishni, moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashni, oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish tamoyillarini ishlab chiqishni, raqobatbardoshlikni ta'minlashning strategik omili sifatida turli korxona va firmalar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish va uning natijasida yangiliklarni ishlab chiqish va joriy etishning natijaviyligini oshirishni kiritishimiz mumkin.

Nazorat savollari:

1. Ish beruvchilar va mehnat bozori o'rtasidagi zaruratni izohlang/
2. Talabalar va pedagoglarning ehtiyojlarini o'rganish usullari qanday?
3. Global iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarning kelib chiqish sabablarini ayting?



IV. SEMINAR-TRENING MASHG‘ULOT MATERIALLARI

IV.SEMINAR-TRENING MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu: Xalqaro ta'lim standartlari va oliy ta'lim tizimidagi global tendensiyalar. (2 soat).

Xalqaro ta'lim tizimining asosiy standartlari: UNESCO, OECD, Bologna jarayoni va ECTS krediti tizimi. Ta'lim sifatini ta'minlashda ENQA (European Association for Quality Assurance in Higher Education) tamoyillari AQSH, Yevropa va Osiyo mamlakatlarining ta'lim sifatini boshqarishdagi tajribalari bo'yicha ma'lumot va tushunchalar beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni" [1] mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy soha ehtiyojlari qondirish, ta'lim sifati va natijadorligiga erishish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga doir bir qator vazifalar belgilab berdi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari ECTS kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tishi rejalashtirilgan bo'lib, 2030 yilgacha mamlakatimizda 85 foiz oliy ta'lim muassasalari bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan.

Bugungi globallashtirish sharoitida ta'lim va fan islohotlari ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning yechimini belgilab bermoqda. Kredit-modul tizimini joriy etilishi zamonaviy talab va andozalar asosida yangilash hamda kadrlar raqobatbardoshligini ta'minlash va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimida ilg'or standart va tizimlarni joriy etmasdan turib, oliy ta'lim tizimimizni - dunyoda tan olinishiga erishib bo'lmasligi kredit-modul islohotlarini izchil davom - ettirish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Ana'naviy ta'lim tizimidan farqli o'laroq kredit-modul tizimiga o'tilishi oliy ta'lim muassasalari uchun quyidagi muhim natijalarga erishish imkonini beradi:

1. O'quv yuklamasining taqsimoti. Muayyan ta'lim yo'nalishining o'quv rejasiga muvofiq ECTS kredit-modul tizimida bir o'quv yilida to'plashi kerak bo'lgan kreditlar miqdori belgilab qo'yiladi. Bu bir semestr uchun 30 kredit va bir o'quv yili uchun 60 kreditni tashkil qiladi. Shuningdek, talaba har bir kredit miqdoriga mos o'quv yuklamasi miqdori ham aniq belgilangan bo'lib, bu 25-30 soat tashkil etadi.

ECTS kredit-modul tizimida barcha oliy ta'lim muassasalarida talabalarning o'quv yili yoki bir semestrda o'quv yuklamasi bir xil bo'ladi. Aynan ushbu bir xillik o'quv dasturlaridagi barqarorlik va o'ziga hos muvozanatga olib keladi. Natijada talabalarga asosan mutaxassislik fanlarini o'qitishga urg'u beriladi, birinchi semestrda 7-8 ta, ikkinchi semestrda 10 ta fanni o'qishga oliy ta'lim muassasi majburlay olmaydi. Kredit-modul tizimida kreditlarning semestrlardagi fanlar

bo'yicha o'rtacha taqsimoti 5-6 ta fanni tashkil etib, talaba bir semestrda ko'pi bilan 6 ta fan o'rganadi. Semestr davomida o'rganishi zarur bo'lgan fanlarning soni amaldagidan ko'ra ancha qisqarishini anglatmaydi balki, kelajakda raqobatbardosh mutaxassis bo'lishi uchun eng zarur bilim va ko'nikmalarni egallashini anglatadi. Kredit-modul tizimi ta'lim va o'quv dasturlariga me'yorni olib kirishi bilan bira qatorda ta'lim sifatini ta'minlashga ham xizmat qiladi ya'ni, ta'limni tashkil etishda son ko'rsatkichidan sifat ko'rsatkichiga o'tishini ta'minlaydi. Fanlar sonining kam bo'lishi talabalar uchun shu kam sonli fanlarni yanada chuqurroq va har tomonlama o'rganishlariga, raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

2. Tanlov fanlar - fanlarni tanlash imkoniyati. Talabalrad kelajakda o'zi tanlagan soha bo'yicha ishlashga ishtiyoq ortib borishi bilan yildan yilga mutaxassislik fanlarni chuqurroq o'rganishga ehtiyoj ham ortadi. Talaba ham mutaxassis sifatida shakllanib boradi, o'quv dasturidagi ayrim mutaxassislik fanlarning ahamiyati ortib boradi.

Kredit-modul tizimida o'quv dasturiga tanlov fanlarining kiritilishi talaba uchun juda muhim kompetensiya hisoblanadi. Talabalar o'qishning dastlabki semestrlarida umumkasbiy fanlarni o'zlashtirganlaridan so'ng o'z sohasi bo'yicha maxsus fanlarni o'z qiziqishlaridan kelib chiqib mutaxassislik fanlarini o'zlari tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Talaba kursdan kursga o'tgani sari mutaxassis sifatida shakllanib, unda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham shakllanib boradi. Tabiiyki bunday sharoitda tanlov fanlari soni ham kursdan kursga ko'payib borishi zarur bo'ladi. OTMlar esa asta-sekinlik bilan talabalarga o'z fakultetlaridan tashqarida, ya'ni boshqa fakultetlardan ham tanlov fanlari olishga imkoniyat yaratishlari zarur.

Fanlarni tanlash amaliyoti talabalarga o'zlari xohlagan yo'nalish bo'yicha chuqurroq bilim olishlariga imkoniyat yaratishi bilan birga OTM o'quv dasturidagi fanlar tarkibini saralanib, mehnat bozori talabalariga moslashishga xizmat qiladi. "Tanlov fanlar oliy o'quv yurtining barcha yo'nalish va mutaxassisliklari bo'yicha tuziladi va kelgusida kasbiy faoliyat turlari hamda va mutaxassisning har tomonlama yetuk kadr bo'lib shakllanishi uchun zarur bo'lgan fanlarni o'zida qamrab oladi. Tanlov fanlarida ta'lim dasturidagi barcha tanlov fanlarining qisqa mazmuni keltiriladi"

Tanlov fanlar amaliyoti ta'lim sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib, bunda o'qituvchi uning fani o'ziga yetarli miqdorda talabalarni jalb qila olishi uchun doimiy ravishda o'z ustida ishlashi, fanning talabalar uchun ahamiyatini saqlab qolish uchun darslar sifatini doimiy ravishda yaxshilab borishi zarur bo'ladi. Aks holda ushbu fan o'quv dasturidan chiqib ketishi va o'qituvchi o'z ishini yo'qotib qo'yishi mumkin bo'ladi. Bu jarayon darslar sifati yaxshilanishiga ham xizmat qiladi.

3. O'quv dasturlarida fanlarning saralanishi. "Kredit-modul tizimi dunyoning ko'plab ilg'or va rivojlangan mamlakatlarining ta'lim tizimida joriy etilgan bo'lib, turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kredit-modul tizimining maqsadga

muvofig ekanligi uning dunyoning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimiga joriy etilganligidan ham ko'rinib turibdi. Ushbu tizimda ta'lim dasturlarning talabalarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilishi ularda ijodiy faollikni va bilim olishga intilishni, adabiyotlar va turli axborot manbalaridan mustaqil foydalanish ko'nikmasini, ma'lumotlarni tahlil qilish va keraklilarini saralab olish malakasini shakllantiradi. Bu esa ta'lim sifati va samaradorligining oshirishdagi muhim faktorlardan biridir"

An'anviy ta'lim tizimida oliy ta'lim o'quv dasturlarida talabaning mutaxassisligiga to'g'ridan to'g'ri aloqasi bo'lmagan fanlar kiritilar edi. Xususan, aksariyat oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mutaxassisligiga to'g'ridan to'g'ri aloqasi bo'lmagan jismoniy tarbiya, dinshunoslik, etika, estetika va shunga o'xshash boshqa fanlar o'qitilgan. OTM o'qish dasturlarini umumiy, mutaxassislikka to'g'ridan to'g'ri aloqasi bo'lmagan, o'zini takrorlovchi fanlar bilan to'ldirilishi talabaning oltinga teng vaqtdan samarali foydalana olmasligiga olib kelmoqda.

"Har bir mutaxassislik uchun kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtiradigan fanlarga kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilmagan umumnazariy xarakterga ega fanlarga nisbatan ko'proq kredit berilishi lozim. Tabiiyki, fan qanchalik ahamiyatli bo'lsa, u talaba uchun bajarilayotgan o'quv yuklamasi xilma-xil va yanada samarali bo'lishini ta'minlashi lozim"

4. Bakalavr va magistratura dasturlariga shaffoflik kirishi. Kredit-modul tizimida talabalarga bakalavr yoki magistratura dasturlarining maqsadlari, unda o'rganiladigan fanlar, dastur davomida qanday bilim, ko'nikma va mahoratga ega bo'lishlari haqida yetarlicha ma'lumot berilishi talab etiladi. Kredit-modul tizimi mehnat bozori talablaridan kelib chiqib mutaxassis tayyorlashni taqozo etar ekan, OTMlar o'zlarining har bir bakalavr va magistratura dasturning maqsadlarini shaffofligini ta'minlaydi. Zero, abituriyent yoki talaba keljakda aynan qanday mutaxassis bo'lib chiqishini oldindan bilib oladi.

2-mavzu: O'zbekiston ta'lim tizimiga integratsiya imkoniyatlari. (2 soat).

Oliy ta'lim sifati baholash bo'yicha xalqaro tizimlar: QS World University Rankings, THE Rankings. Dunyo oliy ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatli tajribalar: AQSh, Yevropa, Osiyo davlatlari namunasi bo'yicha ma'lumotlar beriladi va tahlil etiladi.

Ta'lim sifati har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun uning sifati doimiy monitoring qilish va baholash muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon ta'lim muassasalarida o'quv dasturlarining samaradorligini aniqlash, professor-o'qituvchilarning pedagogik mahoratini baholash hamda talabalarning bilim darajasini tahlil qilish imkonini beradi. Ilmiy jihatdan olib qaraganda, monitoring va baholash usullari ta'lim tizimida islohotlar samaradorligini aniqlash,

kamchiliklarni bartaraf etish va innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Jahon tajribasida ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash turli tizimlar asosida amalga oshiriladi. Xalqaro darajada TIMSS, PISA, QS World University Rankings kabi reyting va baholash tizimlari oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini belgilashda keng qo'llaniladi. Masalan, QS reytingi universitetlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati, talabalar va o'qituvchilar soni, ish beruvchilar fikri kabi omillarni hisobga oladi. AQSh va Yevropa mamlakatlarida ta'lim sifati ISO 21001 kabi xalqaro standartlar asosida nazorat qilinadi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (Big Data) asosida ta'lim natijalarini tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari kengayib bormoqda. O'zbekistonda ta'lim sifatini baholash dolzarb masalalardan biridir. Oliy ta'lim muassasalarida Milliy reyting tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, unda universitetlarning ilmiy faoliyati, bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasi va professor-o'qituvchilar salohiyati hisobga olinadi. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan turli indikatorlar asosida baholash olib boriladi. Shuningdek, raqamli ta'lim platformalari orqali talabalar bilimini avtomatlashtirilgan tizimlar yordamida baholash amaliyoti rivojlanmoqda. Shu sababli, ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash usullarini yanada takomillashtirish orqali O'zbekistonda ta'lim tizimining xalqaro miqyosda raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Bu borada innovatsion texnologiyalar, ilg'or baholash metodikalarini joriy etish va xalqaro tajribalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash usullari bo'yicha ilmiy adabiyotlar ta'lim menejmenti, innovatsion texnologiyalar va sifat baholash tizimlarining rivojlanishiga asoslangan. Ushbu mavzuda xalqaro va milliy tadqiqotlar ta'lim sifati monitoringi usullarini takomillashtirish, innovatsion menejment yondashuvlari va zamonaviy baholash tizimlarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Shumpeter (2002) innovatsion jarayonlarni baholash va ta'lim sohasida yangiliklarni joriy etish tamoyillarini tahlil qilgan. Ushbu tadqiqot ta'lim sifatini yaxshilashda innovatsion menejmentning asosiy nazariy jihatlarini ochib beradi. Kovalyev (1999) innovatsion menejment tizimlarining tashkilotlardagi samaradorligini oshirish yo'llarini o'rganib, oliy ta'lim muassasalarida sifatni boshqarish tizimlarini takomillashtirish strategiyalarini ilgari surgan.

3-mavzu: O'zbekiston oliy ta'limi uchun dolzarb yo'nalishlar. (2 soat).

Ta'lim muassasalarini xalqaro standartlarga moslashtirish strategiyalari. Ta'lim siyosati va strategiyalarni ishlab chiqishda xalqaro yondashuvlar. Xalqaro va milliy darajada ta'lim sifatini monitoring qilish bo'yicha ma'lumotlar beriladi va tahlil etiladi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga etkazish maqsadida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

So'ngi yillar mobaynida oliy ta'lim va kadrlar tayyorlash sohalarini isloh qilishga oid yurtimizda bir qator farmon va qarorlar qabul qilindi. Qabul qilingan ushbu hujjatlarda xorijiy oliy ta'lim muassasalarini tashkil etish uchun qator qulayliklar yaratildi. Natijada, yurtimizda xalqaro oliy ta'lim muassasalarini barpo etilishi davlat oliy ta'lim muassasalariga kadrlarni tayyorlashda yangi raqobat muhitini shakllantirdi, bu o'z navbatida davlat oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish bo'yicha yangi vazifalarni belgilab berdi.

Oliy ta'lim muassasalariga xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan kredit-modul tizimini joriy etish, ta'lim dasturlari va talabalar bilimini baholash tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish, shuningdek, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga o'tish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish talab etilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish;

- xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lamini kengaytirish va boshqa budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalari tarkibida texnopark, farsayt, texnologiyalar transferi, startup, akselerator markazlarni tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilish va prognozlashtirish bo'yicha faoliyat olib borishlarini ta'minlash;

- professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalarini tashkil etiladigan texnoparklarda ilmiy va innovatsion faoliyat olib borishlariga erishish;

- budjetdan tashqari mablag'lar hisobiga startup loyihalari asosida tijoratlashtirish salohiyati yuqori bo'lgan yangi mahsulotlar va texnika-texnologiyalarni yaratish orqali oliy ta'lim muassasalari huzurida ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish bilan shug'ullanuvchi "spin-off" va "spin-out" korxonalarini tashkil etish, akademik tadbirkorlikni rivojlantirish;

- xalqaro SsiVal axborot-tahlil tizimi yordamida jahondagi ilmiy-tadqiqot natijalarini tahlil qilib borish asosida ilm-fanning ilg'or yutuqlari bilan uyg'un rivojlanishini ta'minlash;

- nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish;

- oliy ta'lim muassasalari ilmiy jurnallarining Scopus, ScienceDirect va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

- fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishini rag'batlantirish;

- xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga kiruvchi nufuzli ilmiy nashrlarda maqolalar e'lon qilish orqali faoliyatining ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko'rsatkich "Xirsh" indeksi (h-indeks) yuqori bo'lgan olimlar, professor-o'qituvchilar hamda yosh ilmiy izlanuvchilarni budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirib borish tizimini joriy etish;

- oliy ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifatini ko'tarish, ularni statistik, texnik va boshqa ma'lumotlar bilan ta'minlash mexanizmlarini yaratish, bu borada tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarni qabul qilish;

- professor-o'qituvchilar tarkibining ilmiy daraja va unvonlarga ega xodimlar yoshi nuqtai nazaridan optimal nisbatiga erishish;

- ilmiy-tadqiqot muassasalari olimlarini ta'lim jarayoni va ilmiy rahbarlikka jalb qilish, magistratura va doktorantura bosqichlaridagi ilmiy ishlarni mazkur ilmiy-tadqiqot muassasalarida olib borilishi hamda himoya qilinishini ta'minlash;

- jahon ilmiy tadqiqotlar bozori tendensiyalaridan kelib chiqib, har bir oliy ta'lim muassasasida (fakultet, kafedra va laboratoriyalar kesimida) ilmiy tadqiqotlarni tor va fanlar tutashligidagi sohalarga ixtisoslashtirish, ularni ishlab chiqarish va hududiy rivojlanish ehtiyojlariga moslashtirish, qiyosiy ustunlikka ega bo'lgan istiqbolli ilmiy yo'nalishlarni belgilash, ushbu yo'nalishlarda yuqori malakali professor-o'qituvchilar va talabalar salmog'ini oshirish;

- Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi O'zbekiston-Yaponiya yoshlar innovatsiya markazi, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi O'quv-amaliy to'qimachilik texnoparki hamda Urganch davlat universiteti huzuridagi "Xorazm" innovatsion texnoparkining faoliyati samaradorligini oshirish;

- xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish orqali innovatsion faoliyat infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida

“Hujayra va molekulyar biotexnologiya”, “Tibbiy genetika”, “Ekofiziologiya”, “Materialshunoslik”, “Energiya tejovchi texnologiyalar, nazorat-o‘lchov va avtomatlashtirilgan tizimlar”, “Qurilish materiallari” hamda “Oziq-ovqat mahsulotlari va texnologiyasi” yo‘nalishlari bo‘yicha 7 ta oliy ta‘lim muassasalariaro ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish;

- O‘zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi, Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, Biofizika va biokimyo instituti, Intellektual dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazida zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilishini ta‘minlash va rivojlantirib borish;

- ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining tegishli institutlari hamda nufuzli xorijiy oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yetakchi mahalliy oliy ta‘lim muassasalarining faol hamkorligini yo‘lga qo‘yish, bunda mentorlik modelidan keng foydalanish;

- professor-o‘qituvchilar tomonidan yuritilishi lozim bo‘lgan turli jurnal va o‘quv-uslubiy hujjatlar sonini qat’iy qisqartirish orqali ularning ilmiy faoliyatini jadallashtirish;

- ilmiy-tadqiqot ishlarini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi, shu jumladan hududiy miqyosdagi mavjud muammolarning innovatsion yechimiga qaratish, fanlar tutashligidagi muammolarni keng tadqiq etish;

- iqtidorli yoshlarni aniqlash, akademik litseylarga jalb qilish, oliy ta‘lim muassasalariga saralab olish, chuqurlashtirilgan ta‘lim dasturlari asosida o‘qitish, ularning fan olimpiadalaridagi ishtirokini kengaytirish, ilmiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, “ustoz-shogird” tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish, bu boradagi ma‘lumotlar elektron bazasini yaratish;

- oliy ta‘lim muassasalarining Yoshlar akademiyasi hamda Fan va texnologiyalar bo‘yicha respublika kengashi bilan hamkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirib borish;

- oliy ta‘lim muassasalari ilmiy salohiyatini oshirish, maqsadli doktorantura orqali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

- xorijiy oliy ta‘lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ilmiy daraja dasturlarini ishlab chiqish;

- oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim institutlari faoliyatini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ilmiy kengashlar va himoyalar tizimini xalqaro tajribaga muvofiqlashtirish;

- ilmiy darajalar va unvonlar berish vakolatini bosqichma-bosqich oliy ta‘lim muassasalariga berish;

- doktoranturaga qabul qilish shartlarini belgilashda oliy ta'lim muassasalariga erkinlik berish, talabgorlarni saralab olishda ularning ilmiy yutuqlariga alohida e'tibor qaratish;

- ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar majlislarini hududlardagi oliy ta'lim muassasalaridan turib onlayn kuzatish platformasini yaratish.

4-mavzu: O'zbekistonning oliy ta'lim sifatini ta'minlash tizimi. (2 soat).

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlashning muvaffaqiyatli tajribalari. Ichki va tashqi sifatni ta'minlash tizimlari. Oliy ta'limda sifat menejmenti tizimlarini joriy qilish. Milliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish yo'llari. Yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar yordamida ta'lim sifatini yaxshilash bo'yicha ma'lumotlar beriladi va tahlil etiladi.

Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish;
- yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash jarayoniga kadrlar buyurtmachilarini faol jalb etish;
- oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi va barqarorligini ta'minlash, moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash;
- oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish, shaffoflikni ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;
- oliy ta'lim tizimining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash.

Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- oliy ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari, shuningdek investitsiyalarni jalb qilgan holda nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari faoliyatini tashkil etish orqali oliy ta'limda raqobat muhitini yaratish;

- xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida yuqori malakali, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar, professional kadrlarni tayyorlovchi, yetakchi ta'lim va ilm-fan markazi — Prezident universitetini tashkil etish;

- oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini Investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarini optimallashtirish, bunda STEAM yo'nalishlarini (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, ijodiy san'at va matematika) rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

- oliy ta'lim muassasalarining quvvati, ilmiy salohiyati va boshqa asosiy ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda to'lov-kontrakt asosidagi qabul parametrlarini oliy ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil belgilash tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

- davlat granti asosida kadrlar tayyorlash parametrlarini bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassasalari o'rtasida tanlov o'tkazish yo'li bilan taqsimlash mexanizmlarini joriy etish;

- xotin-qizlarning oliy ta'lim olishga bo'lgan huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish, ta'lim olishda gender tengligi tamoyillari ustuvorligini ta'minlash, mahallalar, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari muntazam ravishda xotin-qizlarni oliy ta'limga keng jalb qilishga yo'naltirilgan keng targ'ibot ishlarini olib borish;

- ta'limning uzluksizligiga erishish maqsadida umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim dasturlarining uyg'unligi va izchilligini ta'minlash;

- oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni bosqichma-bosqich mazkur tizimga o'tkazish;

- individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlari hamda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, ularni tasdiqlash bo'yicha oliy ta'lim muassasalariga bosqichma-bosqich akademik mustaqillik berish;

- mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish;

- talabalar bilimini baholash tizimi texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta'minlash, jumladan baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish;

- fanlarni o'zlashtirishda talabalar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish;

- o'quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro'yxatiga kiritish;

- gumanitar va pedagogik yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, hududlardagi barcha umumta'lim maktablariga xorijiy tillarni o'zlashtirgan, yuqori malakali professional pedagog kadrlarni yetkazib berish;

- ilg'or xorijiy tajribalar asosida oliy ta'lim muassasalariga yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirib borish;

- oliy ta'lim muassasalarida o'quv-uslubiy faoliyat uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislar malakasini muntazam oshirib borish;

- ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha xorijiy tillarda o'qitiladigan mutaxassislik fanlari salmog'ini oshirib borish;

- magistratura talabalarining yuqori saviyada ilmiy izlanishlar olib borish, pedagogik faoliyat yuritish, boshqaruv, tanqidiy fikrlash va tizimli tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi uchun mazkur ta'lim bosqichi o'quv reja va dasturlarini muntazam takomillashtirib borish;

- o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish tartibini soddalashtirish, eng yangi xorijiy adabiyotlarni xarid qilish va tarjima qilish ishlarini jadallashtirish, xorijiy adabiyotlardan qo'shimcha yoki muqobil o'quv adabiyotlari sifatida foydalanishni kengaytirish, kutubxonalar fondlarini muntazam ravishda yangilab borish;

- tanlov asosida aniqlangan va o'quv adabiyotlariga mualliflik qilayotgan professor-o'qituvchilarning yillik o'quv yuklamasini taqsimlash mexanizmini takomillashtirish, bunda ularning umumiy yillik yuklamalarida o'quv adabiyotlarini yaratish uchun ajratilgan vaqtni dars o'tish yuklamasi vaqti hisobidan oshirishni nazarda tutish;

- imkoniyati cheklangan talabalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish va ularning sifatini yaxshilash, ta'limda inklyuziv jarayonlarni rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;

- barcha oliy ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlari bo'yicha talabalar fikrini o'rganish (feedback) hamda o'zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilab borish;

- fan sohalari bo'yicha professor-o'qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta'lim sifatini ta'minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish hamda "tyutorlik" tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish orqali talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish;

- xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, talaba-yoshlarning akademik faoliyati, muammolari va turmush tarzi, o'quv jarayoni hamda yaratilgan sharoitlar bo'yicha talabalar fikr-mulohazalarini o'rganish maqsadida ular o'rtasida har yili respublika miqyosida milliy so'rov o'tkazish;

- oliy ta'lim muassasalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida o'quv-pedagogik va ilmiy faoliyat yuritish uchun xorijlik yuqori malakali professor-o'qituvchilar va mutaxassislar, ta'lim va ilm-fan sohasida faoliyat yuritib, salmoqli yutuqlarga erishgan, yurt rivojiga hissa qo'shish istagida bo'lgan xorijdagi vatandoshlarni jalb etish, bu borada ularga akademik va infratuzilmaga oid qulayliklar yaratib berish;

- yuqori malakali professor-o'qituvchilar, olimlarni ta'lim jarayoniga jalb qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, muayyan ko'rsatkichlar asosida ularning faoliyatini baholash tizimini rivojlantirish;

- oliy ta'lim muassasalarida milliy hamda xalqaro baholash tizimlari sertifikatlariga ega bo'lgan, xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirgan professor-o'qituvchilar va talabalar ulushini tizimli ravishda oshirib borish;

- "El-yurt umidi" jamg'armasi ko'magida professor-o'qituvchilarni xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash, magistratura va doktoranturada o'qitish orqali ularning kasbiy mahoratini oshirib borish;

- ko'p yillik mehnat stajiga ega bo'lgan amaliyotchi mutaxassislarni ta'lim jarayoniga keng jalb qilish, professor-o'qituvchilarning tegishli soha korxona va tashkilotlarida stajirovka o'tashini tizimli tashkil etish;

- ijtimoiy soha va iqtisodiyotning barcha tarmoqlari mutaxassislari uchun uzluksiz malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimlarini joriy etishning me'yoriy-huquqiy va o'quv-metodik asoslarini takomillashtirib borish, bu borada masofaviy ta'lim imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ishdan ajralmagan holda o'qishini ta'minlash maqsadida sirtqi va kechki ta'lim shakllarida kadrlar tayyorlashni rivojlantirish, bunda raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish;

- iqtisodiyotning zamonaviy talablariga muvofiqlikni ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlarini takomillashtirib borish;

- talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy bazani ishlab chiqish va rivojlantirib borish;

- respublika oliy ta'lim muassasalariaro ichki akademik mobillik dasturlarini, o'zaro tajriba almashish mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish;

- xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik doirasida professor-o'qituvchilar va doktorantlar akademik mobilligi dasturlarini rivojlantirish;

- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish;

- oliy ta'lim muassasalariga qabul jarayonlarida bitiruvchilarning attestatidagi o'rtacha bahoni inobatga olgan holda, ta'lim yo'nalishlariga mos bo'lgan fanlardan milliy va xalqaro baholash tizimlari sertifikatlariga ega bo'lgan abituriyentlarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tajribasini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish;

- milliy baholash tizimi sertifikatlari taqdim etiladigan fanlar ro'yxatini kengaytirish, bunday xizmatlar ko'rsatadigan davlat va nodavlat muassasalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

- oliy ta'lim muassasalari fan olimpiadalarini o'tkazish tartibini takomillashtirish, shaffoflikni ta'minlash, baholash mexanizmlarini xalqaro olimpiada va tanlovlar mezonlariga moslashtirish.

Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

✓ raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

✓ zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

✓ ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, "blended learning", "flipped classroom" texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

✓ zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

✓ ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi "E-MINBAR" platformasini amaliyotga joriy etish, ta'lim jarayonlarida "bulutli texnologiyalar"dan foydalanish;

✓ masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta'lim muassasasida o'qishni tamomlaganlaridan so'ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo'lga qo'yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;

✓ milliy elektron ta'lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta'lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta'lim jarayonida elektron resurslar salmog'ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o'quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

✓ oliy ta'lim muassasasining konferensiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma'lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy-texnik ma'lumotlar yangiligini ta'minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;

✓ ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;

✓ oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli hisobot va ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularni tayyorlashning qog'oz shaklidan voz kechish, boshqaruv tizimi va o'quv jarayonlari, kutubxona va hujjatlar aylanmasini elektronlashtirishni ta'minlovchi "Elektron universitet" platformasiga bosqichma-bosqich o'tish, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilishning elektron tizimini joriy etish;

✓ oliy ta'lim muassasalari pedagog xodimlari, bakalavriat, magistratura talabalari va doktorantlariga oid ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi va muntazam yangilanib boruvchi elektron baza (Student Record System) yuritilishini yo'lga qo'yish asosida uning milliy tizimini yaratish;

✓ xalqaro moliya tashkilotlari ko'magida oliy ta'lim sohasidagi o'quv-uslubiy, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, shuningdek davlat interaktiv xizmatlari ko'rsatishga doir ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan va muntazam yangilanib turadigan oliy ta'limning yagona axborot platformasi — "Oliy ta'lim boshqaruvi axborot tizimi"ni ishga tushirish, unda vakant o'rinlarga o'tkazilayotgan tanlovlarga oid e'lonlarni hamda arizalarni onlayn qabul qilish imkoniyatlarini nazarda tutish.

5-mavzu: Ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va oliy ta'limni moslashtirish.

(2 soat).

Ish beruvchilar va mehnat bozori tahlili. Talabalar va pedagoglarning ehtiyojlarini o'rganish usullari. Global iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar fonida

oliy ta'limga ehtiyojlar. Ta'lim dasturlarini moslashtirish va yangi yo'nalishlarni joriy etish bo'yicha ma'lumotlar beriladi va tahlil etiladi.

OTMda ta'lim sifatini oshirishning asosiy mexanizmi o'qitish sifati va ta'lim xizmatlari sifatiga bog'lq. Kadrlar buyurtmachilari raqobatbardosh pozitsiyani egallashda innovatsion yondashuvni talab etmokdalar. Ushbu masalalarni amalga oshirishda O'zbekistonning oliy ta'lim tizimi milliy innovatsion tizimni shakllantirish, innovatsion muhitni yaratish, yangicha fikrlash, yukori madaniyatni shakllantirishda yetarli hissasini qo'shishi uchun kerakli salohiyatga ega.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning quyidagi usutvor yo'nalishlari bo'yicha vazifalar yechimi belgilangan:

- oliy ta'lim tizimini isloh qilishning zamonaviy bosqichida innovatsion jarayonlarni qo'llash va amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

- respublikada oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarishning jaxon standartlariga asosan ta'limda sifat menejmenti usullarini samarali qo'llash;

- globallashuv va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion texnologiyalarni qo'llash asosida ta'lim tizimi sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarini samarali innovatsion strategiyalar yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- respublika oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda samarali xorijiy tajribalarni o'rganishning ijobiy natijalarini respublikada qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

- oliy ta'lim tizimida me'yoriy-huquqiy xujjatlarni takomillashtirishda erishilgan tajribalarni yanada ommalashtirish asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalar ishlab chiqish;

- milliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashtirish sharoitida respublikada oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'lim xizmatlari turlarini kengaytirish;

- oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish asosida fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani yanada kuchaytirish;

Ma'lumki, ta'lim jamiyat rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Qanday sohada bo'lmasin, yuqori bilimga ega mutaxassislar ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bilan shug'ullanish, yangi mahsulot turlarini yaratish va texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Jahondagi globallashuv jarayonlari va kompaniyalar o'rtasidagi mavjud chuqur raqobat muhiti mutaxassislarni ham favqulodda shunga tayyor bo'lishlarini talab etadi. OTMlarga shunday bozor omillari ta'sir ko'rsatadiki, birinchidan, korxona va tashkilotlar tomonidan bitiruvchi mutaxassislarga talab

shakllansa, ikkinchi tomondan, abituriyentlarning oliy o'quv yurtiga kirish uchun shart-sharoitlari shakllanadi. Shunga ko'ra, o'z navbatida, o'quv yurti kasbiy sohada zaruriy tayorgarlikka ega bitiruvchilar bilan ta'minlash bo'yicha mehnat bozoriga va kadrlar buyurtmachilariga ta'sir ko'rsatadi. Bunga bog'liq holda mutaxassislariga talab doimo o'sib boradi.

OTMlar oldiga qo'yilgan vazifalarga erishish uchun bitiruvchi mutaxassislarni samarali bulishi uchun quyidagi masalalarni hal etilishini talab qilish maqsadga muvofiq, deb xisoblaymiz.

- korxonaning talab qilingan malakali va zarur hajmdagi ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash;

- xodim va umuman korxona jamoasi salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish;

- serunum mehnat, hamjihatlik darajasining yuqoriligi, motivatsiya, o'zini intizomga bo'ysundirish, xodimda o'zaro aloqa va hamkorlik qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish;

- xodimlar mehnatining mazmunli tashkil etish, mehnat sharoitlari, mashg'ulot turi, kasbiy-malakaviy va xizmat bo'yicha ko'tarilish imkoniyatlari va h.k. borasidagi qiziqishlari, xohish-istaklari va ehtiyojlarini amalga oshirilishini ta'minlash;

- ishlab chiqarishning vazifalari va ijtimoiy vazifalarni muvofiqlashtirish (korxona manfaatlari va xodim manfaatlari, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini muvozanatlash).

Ish beruvchilarni eng avvalo, oliy o'quv yurti bitiruvchilari ko'rsata oladigan xizmatlar va bajara oladigan ishlar sifati qiziqtiradi. Oliy ta'lim muassasasi ta'lim tizimini nazorat qiluvchi organlar tomonidan ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlariga to'liq mos kelishi va yuqori samaradorlik ko'rsatkichlariga ega bo'lishi, lekin ish beruvchilar, talabalar va ularning ota-onalari kasbiy tayyorgarlik sifati standartlariga bo'yicha tasavvurlarga mos kelmasligi mumkindir.

Oliy ta'lim muassasalari uchun agar bitiruvchilarni ishga qabul qilgan korxona-tashkilotlarning mutasaddilari oliy ta'lim muassasasiga nafaqat bitiruvchilarning tayyorgarligi, tashkilotchilik qobiliyatlarini baholash bo'yicha taqrizlarni, balki istiqbolli texnologiyalar va yangi texnika sohasida bitiruvchinig bilimlari darajasiga ularning talablarini ham jo'natadigan bo'lsalar, ancha yengil bo'lgan bo'lur edi.

Bu bir tomondan, bitiruvchilarning tayyorgarligini baholashning ob'ektivligini oshirgan, boshqa tomondan esa oliy ta'lim muassasalari (fakultetlar va kafedralar)ni talabalarni o'qitish sifatini oshirish maqsadlarida o'quv jarayonini tuzatishga (shu jumladan, moddiy-texnik asosni takomillashtirishga ham) majbur qilgan bo'lar edi.

Bundan tashqari, o'z darajasini oshirish uchun oliy ta'lim muassasasi tarmoqni rivojlantirish istiqbollari o'rganishi va bashorat qilishi, ta'lim dasturlarini davriy

ravishda agarda bu davrdagi ta'lim dasturlaridagi o'zgarishlar hatto ta'lim xizmatlari iste'molchilarining talablari bilan mos kelmasa ham tuzatib borishi kerak.

Shunday qilib, fakultetlar va kafedralar o'qitilayotganlar kontingenti, tayyorgarligi darajasi, iste'molchilarning talablari, ularning bitiruvchilar tayyorgarligi sifatini baholashlari haqidagi axborotni olish, shuningdek, tarmoqda mutaxassislikning rivojlanishi istiqbollarini taroziga solib ko'rish bilan ta'lim dasturlarini tuzatishlari va mos holda ta'lim jarayonini tashkil etishlari lozim.

Mana shunga parallel ravishda moddiy-texnik asos ham rivojlantirib borilishi va oliy ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadr (IPK)larini tayyorlash hamda malakasini oshirish amalga oshirib borilishi kerak. Shuningdek, malaka oshirish(stajirovka) joyi va lavozimlarini belgilash maqsadlarida ish beruvchilar bilan hamkorlikda ularning malakasini oshirish rejalarini tuzib chiqish ham maqsadga muvofiqdir.

OTMning urni kadrlar buyurtmachilari bozorida uning raqobatbardosh bo'lishini, o'z raqobat urnini mustaxkamlanishiga olib keladi. Asosiy maqsadi - zamonaviy talablariga javob bera oluvchi oliy ma'lumotli mutaxassislarning tayyorlashdan iborat. O'zi tanlagan mutaxassisligi bo'yicha mukammal bilimlarga kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan, shu bilan birga ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ahloqiy sifatlarni o'ziga singdirgan, Respublika taraqqiyotiga o'z xissasini qo'sha oladigan kadrlarga talab bugungi kun ish beruvchilarini ehtiyojdir.

Fan va texnikaning jadal rivojlanishi mustaqil mamlakatimizda barcha soxani tubdan o'zgartirib yubormoqda. Hozirgi zamon ishlab chiqarishdagi ko'pgina kasblar faqat ma'lumotli kishilargina emas, yuksak rivojlangan, ijodiy qobiliyatga ega mustakil fikrlay oladigan kasb egalarini jalb qilishni talab qilmoqda.

Asosiy vazifamiz - bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o'ylangan, har tomonlama to'g'ri qarorlar qabul kila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan kasb egalarini yangi tarkibini shakllantirishdan iborat. Buning uchun oliy ta'lim muassasalari oldida mamlakatimizdagi amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining ko'p qoidalarini o'zgartirilishini, ilmiy asoslangan yangi tizimning shakllanishini va ishlab chikarish korxonalari bilan hamkorlikni keng yo'lga qo'yishda nazariy bilimlarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni taqozo etadi.

Yoshlarga sifatli ta'lim berish bilan birgalikda bevosita ishlab chiqarish korxonalari bilan bog'lashda murakkab vazifalarini hal etishda ta'lim beruvchining g'oyaviy e'tiqodi, kasb mahoratiga, san'ati, iste'dodi va madaniyatiga bog'liqdir.

Ma'lumki, ta'lim natijasi bo'lgan mahsulot, ya'ni yosh kadrlar iste'molchisi ta'lim xizmatlaridan foydalanuvchilar bozori hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslardir. Dunyo va mamlakatimiz ta'lim xizmatlari bozori holati tahlilida nafaqat ta'lim sifati balki, ta'lim xizmatlarini tashkil etish, iste'molchi talablarini inobatga

olish zurur. Mamlakatimizda ta'lim sifati oshirishda va bozor talablarini ta'minlashda quyidagilarni amalga oshirish lozim :

- ta'lim xizmatlarini tashkil etishda bozor talablaridan kelib chiqish;
- ta'lim xizmatlari turlarini iste'molchi bilan o'zaro bog'lash;
- ta'lim muassasalari va iste'molchilar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmini doimiy olib borish;
- ta'lim muassasalarining o'zaro kadrlar buyurtmachilari bilan hamkorlik samaradorligi ta'minlashni tashkil etish.

Ta'lim sifatiga baho berishda unga ta'sir etadigan omillarni ta'lim tizimida ishtirok etuvchi sub'ektlar bo'yicha monitoringini tashkil etish zarur.

Zamonaviy ta'lim tizimida nafaqat kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanish, balki ishlab chiqarishni rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish ham zarur hisoblanadi. Dunyo ta'lim xizmatlari tarkibida ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha yangiliklar yaratish va boshqa turli xizmatlar ko'rsatishdan olinayotgan daromadlarning ulushi ortib bormoqda.

Mamlakatimizda ham ta'lim sifatini oshirishning mexanizmlaridan biri bo'lgan fan, ta'lim va ishlab chiqarish hamkorligini ta'minlashda kadrlar buyurtmachilari taraflari hamda uning asosiy sub'ektlari hisoblangan professor-o'qituvchi va talabani rag'batlantirish mexanizmlaridan foydalanishga yo'l qo'yilsa, bu sohadagi ishlar ijobiy natija beradi.

Oliy ta'lim tizimining kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini amalga oshiruvchi asosiy boshkaruv bo'g'ini - oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislik kafedralari hisoblanadi. Mazkur hamkorlikni yo'lga qo'yish maqsadida mutaxassislik kafedralari qoshida yetuk professor-o'qituvchilar, tegishli ishlab chiqarish korxonalari vakillari, doktorant, magistrant va iqtidorli talabalar tarkibidan iborat guruhlar shakllantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishni, jahon hamjamiyatiga qo'shilishni ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir.

Iqtidorli bolalar va o'quvchi yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosati sobitqadamlik bilan olib borilmoqda. Iste'dodli o'smir va qizlarni izlab topish, ularga ko'maklashish, ularning qobiliyati va iste'dodini o'stirish bo'yicha

maxsus fondlar tashkil etildi, qobiliyatli yoshlarni chet ellardagi yetakchi o'quv yurtlari va ilmiy markazlarda o'qitish va stajirovkadan o'tkazish yo'lga qo'yildi.

Fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar kengayib bormoqda.

Shunga qaramay, sodir etilgan o'zgartirishlar kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish talablariga muvofiq bo'lishi kerak. OTMni bitirayotgan kadrlar o'z mutaxassisliklari bo'yicha ishga joylash xali yetarli darajada muommolar bor. Bunga sabab xozirgi kun bitiruvchilari ko'p hollarda korxonalarning talablariga javob bermayapti. Natijada bitiruvchilar boshqa sohalarda ishlashga majbur bo'lmoqdalar va korxonalarda kadrlar muammosi paydo bo'lmoqda.


Hozirgi zamonda OTM bitiruvchilarini talab darajasida tayyorlash va ularni ishga joylashtirish alohida e'tibor talab qiladi. Mana shu parametrlardan kelib chiqqan holda davlat oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni belgilaydi. Hozirgi kunda OTM va ish beruvchilar orasidagi hamkorlikda ba'zi muammolar mavjud.

OTM o'z bitiruvchilarini bilimdon deb hisoblasalarda, ular ish beruvchi talablariga aksariyat holatlarda yetarli darajada javob bermayaptilar. Ko'pgina bitiruvchilar boshqa mutaxassislik bo'yicha ishlashga yoki qayta tayyorlov kurslarida o'qishlariga to'g'ri kelayapti. Shulardan kelib chiqib aytish mumkinki, OTM va potensial ish beruvchi o'rtasidagi hamkorlik dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Shularni hisobga olgan holda respublikamizda bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Barcha OTMlarda ishlab chiqarish korxonalar bilan hamkorlik qilish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Bunda OTM va ishlab chiqaruvchi korxonalar birgalikda ish olib borsalar, kadrlar muammosi hal bo'ladi. Buning uchun quyidagicha yondash lozim bo'ladi. Buning uchun asosiy obekt hisoblangan talabani chuqur bilimli, yetuk mutaxassis bo'lib tarbiyalanishida, maqsadli mehnatga yo'naltirishda ishtirok etadigan subektlarni va mexanizmni aniqlab olish zarur.

Talabaning mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi va ishga joylashtirish masalasiga quyidagi subektlarni javobgar desak adolatdan bo'lar edi.

Bular: talabalar, ota-onalar, OTM (mutaxassislik kafedralari), ishga joylashtirishning umumotmlararo tizimi va ish beruvchilar.



Malakali kadr bo‘lib yetishishda talabaga juda katta ma’suliyat yuklanadi.

Talaba o‘qish davomida o‘z ustida ishlashi, mustaqil ravishda muammolarni hal qilishga xarakat qilishi, berilgan vazifalarni o‘z vaqtida bajarishi, mutaxassislik fanlarini chuqur o‘zlashtirishi, belgilangan rahbar bilan uzluksiz ravishda ish olib borishi lozim bo‘ladi.

Bu jarayonda ota-onaning roli ham o‘ta muxim hisoblanadi. Ota-ona avvalo farzandini biror bir mutaxassislik bo‘yicha o‘qishga berayotganda uning qiziqishlarini, bilimlarini hisobga olgan holda yondashishi lozim. Bu o‘ta muhim hisoblanadi, sababi agar o‘zi qiziqqan kasbga yo‘naltirilgan talaba yetuk mutaxassis bo‘lib yetishadi. Shu bilan birga ota-ona o‘qish davomida talabalarga kerakli sharoitlarni yaratib berish, ya’ni, o‘z vaqtida o‘qishga borishini ta’minlash, dars tayyorlashga sharoitlar yaratish, OTM bilan doimiy aloqada bo‘lib turishi kerak.

Yetuk kadr, malakali mutaxassis tayyorlashda OTM, ya’ni mutaxassislik kafedralar asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. OTM qabul qilib olingan har bir talabaga bilim berishga ma’sul hisoblanadi. OTM talabalarga chuqur va sifatli dars berish uchun, avvalo malakali professor-o‘qituvchilarni jalb qilishi, o‘qish uchun kerak bo‘ladigan barcha sharoitlarni yaratib berishi kerak. Bunga zamonaviy o‘qish auditoriyalari, laboratoriya xonalari, amaliy mashg‘ulot o‘tadigan joylar, maxsus to‘garaklarni tashkil etish, mustaqil ishlash uchun sharoitlar, zamonaviy kutubxonalar, internet xonalari va boshqalar kiradi. Bunda OTM talabalarni o‘qishini doimiy nazorat qilishi, talabalar ota-onalari bilan doimiy aloqada bo‘lishi lozim.

Talabalarni chuqur bilimga ega bo‘lishida ish beruvchi, ya’ni ishlab chiqarish korxonalari ham alohida o‘rin egallaydi. Ishlab chiqaruvchi korxonalar avvaldan o‘z ehtiyojlarini OTMga taqdim etib, o‘ziga kerakli mutaxassislarni jalb qilishi,

talabalarni o‘qish davrida amaliyotga jalb qilib, ularda mutaxassislikka qiziqishlarini uyg‘otish va shu bilan birga ularni rag‘batlantirish orqali ularda stimolni shakllantirish lozim.

Yuqorida keltirilgan subektlar o‘z vazifalarini o‘z vaqtida bajarsa, malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj qondirilishi mumkin.

Shularni hisobga olgan holda shu xulosaga kelish mumkinki, xozirgi kunda malakali mutaxassis tayyorlashda talabalarni maqsadli yo‘naltirish tizimi va mexanizmini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Talabani maqsadli yo‘naltirish tizimi va mexanizmini quyidagicha keltirish mumkin.



Yuqorida keltirilgan tizimdan talabaning malakasiga ta'sir qiluvchi quyidagilarni ajratib olamiz:

1. Umumotmlararo strukturalar ta'siri.
2. Mutaxassislik kafedra ta'siri, jumladan,
 - past kurs talabalarini mutaxassislikka jalb qilish tizimi;
 - yetakchi talabalarni tayyorlash tizimi;
 - o'qituvchilar ta'siri;
 - maxsus ta'lim texnologiyalari asosida talabalikni ijtimoiy qo'llash tizimi;
3. Biznes va menejment vakillarining ta'siri.
4. Ota-onalarning ta'siri.
5. O'qituvchilarning ta'siri.
6. OTMning ichki reytingi.

Xozirgi rivojlanish vaqtida malakali talaba o'z ustida ishlashi, shaxsini o'stirishi lozim bo'ladi. Chunki xozirgi kunda ishga joylashishda talablar yuqori qo'yiladi.

Malakali talaba deganda quyidagilar tushuniladi, ya'ni talaba o'qishni bitirgandan so'ng aniq mutaxassisligi bo'yicha kafolatlangan ish joyiga ega bo'lishi kerak va kelajakda o'z mutaxassisligi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi kerak.

Malakali talaba shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar;

- yo'nalish bo'yicha chuqur fundamental tayyorgarlik;
- barcha ish va vaziyatlarda muvaffaqiyatga intilish;
- o'qish vaqtida tashkilotchilik faoliyatni rivojlantirish;
- tadbirkorlik faoliyatni rivojlantirish;
- ish yuzasidan davomli aloqalarni shakllantirish va rivojlantirish;
- o'z hayoti va karera yuzasidan rejalarni mavjudligi va nazoratini amalga oshirish;
- sog'liqni mustaxkamlash va o'z ish qobiliyatini oshirish;
- oilaviy xotirjamlikni ta'minlash;
- jamoatda o'z obro'sini oshirib borish;
- hayotiy omadga ishonish va bunday vaziyatlarni yaratishga intilish.

Shu bilan birga o'qish davomida talaba o'zini quyidagicha tutishi kerak:

- birinchi kursdanoq otmdagi o'qitish texnologiyalarini jadal o'rganish;
- shaxsiy tashkilotchilik- tizimda yashash va ishlashni bilish;
- rejalashtirish tizimlarini bilish va uni hayotda qo'llashni bilish;
- atrof-muxitdagilar bilan ijobiy muomalada bo'lish;
- shaxsiy faoliyatni doimiy nazorat qilib turish.

Bundan kelib chiqadiki xozirgi vaqtda yuqorida keltirilgan barcha subektlar malakali talabalarni yetishtirishda muxim o'rin egallaydi.

Bugungi kunda ish beruvchi va OTMni o'zaro hamkorligini tashkil etishdan maqsad nima? Buning uchun ish beruvchi va OTMni o'zaro hamkorligini tashkil qilishni quyidagi analizini ko'rib chiqamiz.

Korxona qiziqishi	Talabani qiziqishi	Kafedra qiziqishi
-malakali kadrlarni doimiy ishga olish -amaliy tayyorlash maqsadida talabalarni vaqtinchalik ishga olish -tadqiqot va ishlab chiqarishga talabalarni jalb qilish -ilmiy ishlab chiqarish va maslahatlarga o'qituvchilarni jalb qilish -malakali mutaxassislar tayyorlashda ish beruvchi o'rnini kuchaytirish	Ish bilan ta'minlanishi	-bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qatnashish -aniq kurs va diplom ishlarini korxona muammolari bilan bog'lash -mutaxassislarni tayyorlashda ish beruvchi monitoringini olib borish -talabalarni amaliyot bazasi bilan ta'minlash -kafedra o'qituvchilarini malaka oshirishini ta'minlash -tadqiqot va ishlab chiqarishga buyurtmalar olish -korxona ishchilarni qayta tayyorlashga qabul qilish



V. ADABIYOTLAR RO‘YXATI

ADABIYOTLAR

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2021.- 457 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5040-son Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-son Qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 797-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847- sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar

1. Oliy ta’limning me’yoriy - huquqiy hujjatlari to‘plami. -T., 2013.

2. O‘rinov V. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarida ECTS kredit-modul tizimi: asosiy tushunchalar va qoidalar. O‘quv qo‘llanma. Nyu Bransvik Universiteti, 2020.

3. The European Higher Education Area. - Joint Declaration of the Ministers of Education. - Bologna, 1999, 19 June.

4. Shaping our Own Future in the European Higher Education Area // Convention of European Higher Education Institutions. - Salamanca, 2001, 29-30 march.

5. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020. -120 b.

6. Распространение Болонского процесса: о декларации к внедрению на практике. В 3-х частях. Часть 2. Тенденции развития Болонского процесса, его инструменты и опыт внедрения / Р.Р. Агишев, И.В. Анисимова, Ш.М. Валитов, Д.А. Гопкало, В.Г. Крюков, А.Е. Пушкина, Л.А. Симонова, А.П. Снегуренко. Под ред. проф. Р.Р. Агишева. - Казань, КГТУ им. А.Н. Туполева, 2008. - 118 с.

7. Дементева А.К. Формирование и реализация механизма коммерциализации результатов инновационной деятельности ВУЗа: диссертация кандидата экономических наук: - Ульяновск, 2018. - 224 с. <https://search.rsl.ru/ru/search>

8. J.Tidd and J.Bessant. Managing Innovation: Integrating Technological, Market and Organizational Change. Wohn Wiley and Son’s Ltd, Fourth edition, 2012.

9. Kearney, M., Schuck, S., Burden, K., & Aubusson, P. (2018). "Mobile learning in pre-service teacher education: Examining the use of professional learning designs for future work contexts." *Australasian Journal of Educational Technology*, 34(3).
10. Al-Hunaiyyan, A., Al-Sharhan, S., & Alhajri, R. (2017). "A new mobile learning model in the context of smart classroom environment: A holistic approach." *International Journal of Interactive Mobile Technologies*, 11(3), 39-56.
11. Sharda, R., Delen, D., & Turban, E. (2020). *Analytics, Data Science, & Artificial Intelligence: Systems for Decision Support*. Pearson.
12. V.Karimova, I.Isomov, N.Malikova, G'.Otamurodov. Tizimli tahlil va qaror qabul qilish asoslari. O'quv qo'llanma.- T., 2020. -231 b.
13. Тенденции развития высшего образования в мире и в России. Аналитический доклад-дайджест. –М., 2021. -198 с.
14. A.S. Zikriyoev. Dunyo universitetlari reytingidagi tadqiqotchi olimlar orasida o'zingizni kashf qiling. -T.:Navro'z, 2020. ISBN.9789943659285
15. Sherzod Mustafakulov, Aziz Zikriyoev, Dilnoza Allanazarova, Tokhir Khasanov, Sokhibmalik Khomidov. *Explore Yourself Among World – Class Researchers*. Grand OLEditor. - T., 2019. ISBN: 8175 25766-0.
16. Ackoff, Russell L., *Scientific Method*, New York: John Wiley & Sons, 1962.
17. Barzun, Jacques & Graff. F. (1990). *The Modern Researcher*, Harcourt, Brace Publication: New York.

IV.Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.yuz.uz>
4. <http://www.strategy.uz>
5. <https://president.uz>
6. <http://www.edu.uz>
7. <http://www.lib.bimm.uz>



TELEGRAM



INSTAGRAM



FACEBOOK



YOUTUBE



20
25



+998-71-202-01-20



<https://bimm.uz>